

جدید

2025-yil 1-avgust
№ 31 (83)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishdada birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz




@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

ILM YO'LI



O'ZBEK MATEMATIKASINING OLTIN DAVRI



Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashib, dildan muloqot qilgan edi. Ana shu uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslar, Davlat rahbarining olimlar oldiga qo'ygan dolzarb va kechiktirib bo'lmaz masalalari shundan dalolat ediki, endi ilm-fanga munosabat tubdan o'zgaradi, yangicha dunyoqarash shakllanadi. Bundan keyin ilm ahli faqat o'z ishi bilan mashg'ul bo'ladi, ularni na "oq oltin" hashari, na moddiy-texnik bazaning g'aribligi, na maosh pastligi bezovta qilmaydi.

Xullas, bugun yaratib berilayotgan shart-sharoitlarga munosib bo'lish, ulardan unumli foydalanib, yurt taraqqiyotiga hissa qo'shishgina qolgan edi. O'shanda bunday yuksak maqsadlar tez orada amalga oshishiga ayrimlar ishonmagani ham sir emas. Chunki biz uzoq yillar davomida ziyolilarga panja ortidan qaralishiga, "kamtarona" hayotga ko'nib qolgan edik.

Oradan ko'p vaqt o'tar-o'tmas, Prezidentimizning uzoqni ko'ra bilishi, zamon talabini to'g'ri anglab, ilm-

fanga bergan e'tibori naqadar to'g'ri bo'lgani yaqqol ayon bo'lib qoldi. Zotan, dunyodagi hech bir mamlakat va jamiyat ilm-fansiz zamon talablari darajasida rivojlanishi mumkin emas.

Bugun yurtimizda jahondagi yetakchi institutlar, universitetlar, ilmiy markazlar va akademiyalar bilan ilmiy hamkorlik butunlay yangi bosqichga ko'tarildi. Xorijning yetakchi o'quv va ilmiy muassasalarida ta'lim va ilmiy daraja olgan yurt-doshlarimiz uchun mamlakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratildi.

O'sha tarixiy muloqotdan so'ng o'zini hurmat qilgan har bir olim buyuk ajdodlarimiz izidan borib, manfaatli loyihalar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishi kerakligini teran his qildi.

Biz bu yo'lda dunyoga ikki buyuk Renessansni taqdim etgan ulug' salafalarimizdan o'rnak olishimiz kerak. Shu o'rinda birgina Muhammad Xorazmiyni olaylik. Buyuk vatandoshimiz zamonaviy algebra fanining asoschisi va "algoritm" ilmiy tushunchasining otasi sifatida butun insoniyatga bebaho meros qoldirdi. Undan bugun ham

bahramand bo'lib turgan bashariyat ajdodimizdan oshkora va g'oyibona minnatdor.

Muhammad Xorazmiy 783-yilda Xorazmda tug'ilgan. O'sha paytda ushbu sharofatli zamin dunyo miqyosida fan va ta'lim markazlaridan biri bo'lgan. Bobomiz o'ttiz yoshga to'lmasidanoq Movarounnahrda tashqarida ham ma'lum-u mashhur edi. Ishonch bilan aytish mumkin, Xorazmiy dunyoga dong taratgan Markaziy osiyolik birinchi olim edi. Bunday deyshimizga sabab, Muhammad Xorazmiy ilm-fan dahosi sifatida shuhrat qozongan davrda Ahmad Farg'oniy 11 yoshda, buyuk muhaddis Imom Buxoriy esa hali dunyoga kelmagan edi. Beruniy va ibn Sino kabi allomalar oradan bir asr o'tgach dunyoga keldi.

Muhammad Xorazmiyga qadar odamlar matematika deganda asosan geometriyani, ya'ni yerni o'lchashni, yanayam aniqroq aytganda, yer uchastkalarini o'lchashni tushunishgan. Matematiklar ko'pincha geometriklar deb nomlangan.

(Davomi 2-sahifada).

ESSE

ASARLARI UMRINING DAVOMCHISI

O'tkir aka bilan bir idorada ishlamaganmiz. Ammo birga ishlagan ayrim hamkasblarimizdan ko'ra yaqinroq bo'lib ketgan edik...

... Bu voqeaga oltmish yil bo'ldi.


1965-yilning kuz oylari edi.

Men talabalik yillarimda Chilonzorda ijara yashardim. Hozirgi Amir Temur xiyobonidan Do'mbiobodga 23-avtobus qatnardi. Toshkent davlat universiteti shu xiyobonda, Yuridik universitet joylashgan qadimgi g'ishtin binoda qo'nim topgan edi.



(Davomi 4-sahifada).

VATAN MANZUMASI



Shuhrat AZIZOV

Yurt vasi

Shaydolikda oy oldimga tusholmaydi, Kiprigidan poyondoqlar to'shalgaydir. Yurtim, sening go'zalliging qarshisida, Go'zallikning o'zi ham ip esholmaydi.

So'ylar qadding xaritasi sirlarimni, Eslatar u xipchabelli dilbarimni. Zavqim toshib, aqlim shoshar, oy o'rnidan Bo'yginangga tashlasam ko'z qirlarimni.

Do'ppi kiygan qizday dilga solsang g'uluv, Ichar sening boshingdan gul o'g'irib suv, Ikki o'rim sochi – ikki daryo bo'lib, Ey beliga tushgan yurt, sen buncha suluv.

Dilim yayrar har bahor gulbadan bo'lsang, O'lay senga, shunday go'zal vatan bo'lsang. Mo'rchamiyon malagim ip eshar qanday, Sen undanam suluvroq bir sanam bo'lsang.

Oy o'rniga qo'yib ko'rdim o'zimni men, Endi senga berib turay ko'zimni men. Haddan ziyod chiroylisan, ishonmasang, Mening ko'zim bilan ko'rgin o'zingni sen.

(Davomi 4-sahifada).

MILLAT FIDOYLARI

JAVOHARLA'L NERU TANIGAN JADID

yo'xud tarix bo'yicha birinchi
o'zbek professori Po'lat SOLIYEV haqida

Tarix o'tgan kunlarning tovushsiz va ruhsiz manzarasi emas. Sirtidan qaraganda, tarix faktlar, sanalar, buyuklar va zabunlarning ro'yxatidek ko'rinishi mumkin. Lekin tarixni xolis va haqiqatga sodiq holda o'rganish, uni aniq faktlar asosida tahlil qilish har bir avlod uchun hayotiy zaruratdir. Po'lat Soliyev ana shu tamoyilga umrini bag'ishlagan fidoyi olimlardan biri, haqiqatparvar va jasur shaxs edi.

Po'lat Soliyev 1882-yil 22-martda Astraxan shahrida, o'zbeklarning mang'it urug'iga mansub ziyoli oilada tug'ilgan. Rasmiy va ilmiy hujjatlarda ismi Bulat, Bekbulat, Po'lat shaklida qayd etilgan. Yoshligidan Qozon va Ufada an'anaviy madrasa ta'limini olgan; arab, fors, turk, rus, keyinchalik fransuz va nemis tillarini

puxta o'zlashtirgan. Ma'lumki, XX asrning boshlarida Rossiya musulmon turkiylari orasida o'zaro birlamlik g'oyasi shakllanib, Turkistonga ma'rifiy va siyosiy ko'mak berish tashabbusi ko'tariladi. Ana shu harakat amaliyotiga ko'ra, minglab ziyoli no'g'aylar, tatar va boshqirdlar bizning yurtimizga ko'ngilli bo'lib kela boshlaydi. Po'lat Soliyev ham 1909-yilda Turkistonga kelib, jadidlar safida Toshkent, Farg'ona, Jalolobod, Qo'qon shaharlarida ma'rifiy targ'ibot ishlarini olib boradi, maktablarda tarix, arifmetika va ona tilidan dars beradi.

Keyinchalik Turkiston Muxtoriyati tashkilotchilaridan biri, "El bayrog'i" gazetasining bosh muharriri sifatida siyosiy faoliyat olib boradi. Muxtoriyat tugatilgandan so'ng o'zini butunlay ilm-fanga bag'ishlaydi.

(Davomi 7-sahifada).

TAAJJUB



KO'NGIL DAFTARIDAGI BITIKLAR

ILM – ZULMATNING
KUSHANDASI

Erkensal degan olim bundan ancha yillar avval: "Zamonaviy ilmlarning tamal toshini qo'yishdek sharaflil vazifa musulmonlarga tegishlidir", deb yozgan ekan. Allen Debusning fikri yanada g'ururli: "Musulmonlar Uyg'onish davriga debocha bo'lgan texnologik o'sishlar eshigini ochib berishdi. Afsuski, keyinchalik johillik degan illat urchidi. Ilm-ma'rifat yo'llarida g'ovlar paydo bo'ldi, uxroviy va dunyoviy ilmlar o'rtasida o'tib bo'lmaz devor tiklandi. Ular bir-biriga zid qo'yildi.

Din olimi zamona ilmiga e'tibor bermadi, dunyo olimi, aksincha, moddaparastlikni "chin ilm" deb bayroq qildi".

1922-yili "Haqiqat" jurnalida chop etilgan maqolalardan birida shunday jumlar bor: "So'nggi asrlardagi ma'rifatsizlik, johillikning sababi ilmsiz, ma'rifatsiz xonlar elning chirog'i-yo'l boshchisi bo'lgan ulamolarni o'z bo'yinturug'lari ostiga olib, sof yo'lni o'z shaytanat yo'llariga tatbiq etishganidir".

(Davomi 5-sahifada).

SULOLA

QO'LIGUL TOSHTAROSH

Har insonning barmoq izi – uning genetik kodi. Bu kod faqat ungagina xos. Lekin dunyoda shunday sohir qo'llar borki, ularning kodlari – mehnati o'z egasi nomini abadiyatga muhrlaydi.

Sangtaroshlar sulolasining yettinchi avlodi bo'lmish Tohir ota Rahimov mohir usta. U pardoztosh qazib olish va ishlov berishga ixtisoslashgan

sanoat shahri – G'ozg'onda ikki o'g'li, bir qizi, o'n nabirasi bilan istiqomat qiladi. Otameros hunariga yuksak ishtiyoqi bilan me'moriy san'at asarlarini yaratyapti. Mash'um qatag'on qurboni bo'lgan bobosi – xalq ustasi Abdurahim Turdiyev izidan borib, ulug'lar maqbaralarini ta'mirlashda faol ishtirok etmoqda.

(Davomi 2-sahifada).





Boshlanishi 1-sahifada.

Agar hisob-kitoblarni amalga oshirish kerak bo'lsa, qadimgi matematika faqat raqamlarga murojaat qilgan, hech qanday formula ishlatilmagan.

O'sha davrda raqamlar va kasr sonlar bilan ishlash murakkab jarayon bo'lib, ko'pchilik uchun tushunarsiz edi. Yevropada rim raqamlari ishlatilgan, ular bilan oddiy arifmetik amallarni bajarish juda qiyin edi.

Buning nimaligini aniq bilish uchun men rim raqamlari bilan oddiy hisob-kitoblarni amalga oshirish zarur bo'lgan bitta misolni keltiraman. Qadimgi Rim imperiyasi davrida armiyaning asosini legionlar tashkil etgan. Har bir legion o'n ta kohortadan iborat bo'lgan. Har bir kohortada 555 nafar piyoda va 66 nafardan oltiq askar xizmat qilgan. Oddiy savolga javob berishga harakat qiling – o'n ta kohortada qancha oltiq bor edi? Javob bugun siz-u biz uchun o'ta jo'n: 66 ni 10 ga ko'paytirib, 660 hosilasini olsak bas.

Ana endi rim raqamlaridan foydalaniib, LXVI va X ning ko'paytmasini topib ko'ring-chi! LXVI x X = DCLX.

Zamonaviy o'quvchi bu yerda yozilgan narsalarga qarab nimanidir tushuna oladimi? Qanday qilib tenglik belgisining chap tomonida turgan ifodadan o'ng tomonda turgan natijani olish mumkin? Shunchaki bu tenglamaga rasm sifatida qarang va uni unuting.

Agar siz Muhammad Xorazmiyning hind hisobi haqidagi kitobidan foydalansangiz, unda muammoni 0 belgisini o'ng tomondagi 66 raqamiga qo'shish orqali hal qilish mumkin. Faqat nolni qo'shing!

Nafaqat qadimgi Rimda, balki o'rta asr Yevropasida ham buni amalga oshirish mumkin emas edi, chunki ularda nol raqami yo'q edi. Yevropaliklar ilk bor nol haqida Xorazmiyning kitobidan bilib oldilar.

Muhammad Xorazmiyning asarlari bilan tanishgan Yevropa hayratda qoldi. Lekin xristian ruhoniylari haqida bunday deb bo'lmaydi. Ular Xorazmiy kitoblarini taqiq-lashga urindi, ammo hech qanday cheklov alloma g'oyalarining tarqalishini to'xtata olmadi. Endilikda Muhammad Xorazmiy tomonidan ushbu kitobda bayon etilgan g'oyalar hayotimizga shu qadar kirib keldiki, biz boshqacha bo'lishi mumkinligini tasavvur ham qila olmaymiz.

Buyuk ajdodimizning hind hisobi haqidagi mashhur kitobining lotin tiliga tarjimasi "Dixit Algorizmi" ("Al-Xorazmiy dedi") degan so'zlar bilan boshlanadi. Butun dunyo matematiklari shundan so'ng qanday matematik amallar qaysi ketma-ketlikda bajarilishi kerakligi haqidagi har bir aniq ko'rsatmani "algoritm" deb nomlay boshladi.

Muhammad Xorazmiydan oldin zamonaviy ma'noda tenglamalar mavjud emas edi.

Meros masalalarini hal qilish uchun tavakkal va xato orqali bo'lsa ham taqsimotning barcha ishtirokchilarini chor-nochor qondiradigan butun yoki kasr sonlar ro'kach qilinardi, vassalom.

Xorazmiy bobomiz o'zining mashhur "Kitob al-jabr va-al-muqobala" asarida birinchi marta tenglamalar yechiladigan qoidalarini ko'rsatgan. Hozirda ular birinchi va ikkinchi darajali tenglamalar deb ataladi. Ushbu buyuk kitob lotin tiliga tarjima qilgandan

etilgan, ammo unga tenglashtirilgan Abel mukofoti bor. Bu nufuzli sovrin Abel ishidan deyarli ikki yuz yil o'tgach berila boshlangan. Aytish mumkinki, agar Muhammad Xorazmiyning ajoyib risolasi bo'lmaganida, ushbu mukofot ham bo'lmas edi.

Muhammad Xorazmiy 44 yoshga to'lganida, unga Yer sharining radiusini aniqroq o'lchash bo'yicha ishlarni boshqarishni taklif qilishdi. U iqtidorli yosh olim Ahmad Farg'oniyni o'z jamoasiga olib, bu ishni ajoyib

oshirilgan matematik hisob-kitoblarga qadar tengsiz bo'lib qoldi...

Keyingi davrlarda o'lkamizda hukm surgan jaholat va mustamlakachilik oqibatida ilm-fan taraqqiyoti ham to'xtab qolgani hammamizga yaxshi ma'lum. Mustaqillik yillarida yosh davlatimizning imkoniyati qadar yaratilgan sharoitlarga ko'nikishga to'g'ri keldi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar esa ilm-fan olamiga yangi havo olib kirdi. Avvalo shuni ta'kidlashni



Shavkat ALIMOV,
akademik

Matematika konferensiyalarida qatnashish uchun turli mamlakatlardan kelgan olimlar yangi binolarimizni ko'rib, qoyil qolishmoqda.

Eng muhim o'zgarish – iqtidorli yoshlar orasida matematika faniga katta qiziqish paydo bo'ldi. Yigirma yil oldin dissertatsiyalar deyarli himoya qilinmay qolib ketgan edi. Hozir esa yosh matematiklar mukammal dissertatsiyalarini ajoyib tarzda himoya qilmoqda. Natijada bizning universitetimiz matematika bo'yicha dunyodagi eng nufuzli universitetlarning yuqori uchligidan joy oldi. Bu shuni anglatadi, matematik tayyorgarlik natijalariga ko'ra jahondagi yetakchi universitetlarning 97 foizi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetidan quyida joylashgan!

Asosiysi, yoshlar endi o'z salohiyatlarini aynan o'z yurtida to'laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ishonchm komilki, ushbu islohotlar natijasida o'z iste'dodini to'liq namoyon etish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'lgan yoshlarimiz orasidan Muhammad Xorazmiy kabi buyuk ajdodlarimiz asos solgan ulug' an'analarning munosib davomchilari bo'lgan buyuk matematiklar yetishib chiqadi.

Shavkat Orifjonovich Alimov 1945-yil 2-mart kuni tug'ilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor.

1967-yilda Moskva davlat universitetini tamomlagan. Qator yillar mazkur dargohda ishlagan. Ko'p yillik faoliyati davomida Toshkent davlat universitetida kafedra mudiri, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Matematika instituti direktorining o'rinbosari, Samarqand davlat universiteti va Toshkent davlat universiteti rektori, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri, Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari, mamlakatimizning Xitoy Xalq Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi vazifalarida ishlagan.

Asosiy ilmiy ishlari matematik fizika-ning xususiy hosilali differensial tenglamalari muammolariga, xususan, o'z-o'ziga qo'shma elliptik operatorlarning spektral nazariyasiga, differensial va integral tenglamalar muammolariga bag'ishlangan.

Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti sohibi.



O'ZBEK MATEMATIKASINING OLTIN DAVRI

so'ng, Yevropada ular uchinchi va to'rtinchi darajali tenglamalarni yechish uchun xuddi shunday qoidalarini izlay boshladilar. Bu eng taniqli olimlar tomonidan amalga oshirildi. Ular o'rtaasida ochiq musobaqalar bo'lib o'tdi va ko'plab tomoshabinlarni jalb qildi. Nihoyat, norvegiyalik taniqli matematik Nils Abel beshinchi va undan yuqori darajadagi tenglamalar uchun umumiy yechim qoidalarini yaratish imkonsizligini isbotladi va shu bilan bu boradagi urinishlarga yakun yasadi. Ma'lumki, matematika fani bo'yicha Nobel mukofoti ta'is

tarzda bajardi. Bunday vazifani uddalash uchun eng mos joy – bu chuqur quduqlar bilan jihozlangan tekis sirt hisoblanadi. Xorazmiy Bag'dod yaqinidagi Sinjar cho'lini tanladi va u yerda kerakli o'lchovlarni amalga oshirdi. Olingan natijalarni matematik qayta ishlash Muhammad Xorazmiy boshliq olimlar guruhi tomonidan amalga oshirilgan yuqori darajadagi 1 gradusning sinusini hisoblashni talab qildi. Bu hisob-kitoblarning aniqligi olti asr davomida, yana bir ulug' ajdodimiz Mirzo Ulug'bek tomonidan amalga

istardimki, mamlakatimizda matematikani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Men AQSh, Yaponiya, Germaniya va boshqa mamlakatlardagi dunyoning ko'plab yetakchi universitetlarida ishlaganman, ammo matematikaga bizdagiday xayrixoh munosabatni hech qayerda ko'rmadim.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika instituti Milliy universitetning matematika fakulteti yaqinidagi ajoyib binoga ko'chib o'tdi. Shu tariqa yurtimizda yagona matematika kompleksi yaratildi.

QO'LIGUL TOSHTAROSH

Boshlanishi 1-sahifada.

MARMARKENT

Marmar qatlamlari geologik jihatdan taxminan 400 million yillik tarixga ega qadim va navqiron G'ozg'onda tosh tilini topmagan odam yo'q. Kichig-u kattasining qon-qoniga singib ketgan hunar bu. Ayniqsa, Buxoro amirlarining yozgi saroyi – Sitorayi Mohi Xosaga kiraverishdagi ikki marmar sher haykalini yasab, Buxoro xonlari e'tirofiga sazovor bo'lgan Abdurahim muhandisdan qolgan sangtaroshlikning san'at tarxi g'ozg'onlikman deganning yuragiga o'yilgan. Yo'q degani tosh terib uy ko'taradi, hovlisini toshdevor bilan mozaik-modern uslubda bezaydi. Shu sabab, bu ekzotik shaharchaga kelgan kimki bor, bir olam taassurot bilan ketadi.

G'ozg'on oq, qizil, kahrabo va gulrang – jami qirq besh tushdagi bebaho marmari bilan dunyoda mashhur.



Eramizning VIII–IX asrlaridayoq G'ozg'on tabiiy kafellaridan masjid va madrasalar qurilishida keng foydalanilgan. Turkiya, Eron, Afg'oniston, Tojikiston va Qozog'iston davlatlarining qadim obidalarini qayta ta'mirlash, Ostankino teleminorasi, Tretyakov galereyasi, Moskva hamda Sankt-Peterburg shaharlaridagi metro bekatlari kabi ko'plab diqqatga sazovor joylarning bezak ishlarida ham ishlatilgan. Shuningdek, ko'hna Samarqandning Registon, Shohi Zinda kabi tarixiy inshootlari, Toj Mahal ansambli, Vyetnamdagi Xo Shi Min mavzoleyiga ham shu zaminning oliy dekorativ toshlari muhtashamlik bag'ishlab turibdi.

Qariyb yuz metr chuqurlikdan qazib olinadigan G'ozg'on marmari o'ta issiqqa ham, o'ta sovuqqa ham chidamliligi bilan dong taratgan. Ayniqsa, har xil turdagi marmar toshlarning bir hududda jamligi yer yuzining boshqa hech bir nuqtasida uchramaydi.

Mamlakatimizning eng kichik kentlaridan biri bo'lgan G'ozg'on va uning bebaho konlari haqida gap ketar ekan, hayratlanarli faktlar ko'p keladi. Misol uchun, bu yerdagi yuqori sifatl marmar zaxirasi hajmi 36 million metr kub, ya'ni shaharcha maydonidan qariyb 52 barobar katta. Bundan tashqari, 108,3 million metr kub granit ham ayni shu hududda joylashgan. Bu esa G'ozg'onning eksport salohiyatini xalqaro darajaga yana bir karra ko'taradi. Faqat imkoniyatlardan keng va unumli foydalanish, manfaatli investitsiya samaradorligini oshirishga e'tiborni kuchaytirib borish zarur.

“G'OZG'ON TOSHI – ZAR”

Ha, yurtimizning har qarichida bir barakot bor. Shoir bejiz “Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi” demagan. G'ozg'onda tosh javohirga aylanadi, uni qo'lga olib, taroshlagan ustaga zar tutadi, boylik beradi. Shuning uchun ham mahalliy aholi orasida “G'ozg'on toshi – zar, unga ishlov bermagan xor” degan naql yuradi. Bu har bir oilaning dasturilamal shiori, desak xato bo'lmaydi.

Qolaversa, sangtaroshlik ota-o'g'il, ustoz-shogird an'analari bilan qorishib, sof mehnat muhitini yaratgan. Sulolaning yettinchi vakilini izlab “Marmar kamyob” xususiy korxonasiga borar ekanmiz, bunga yana bir karra amin bo'ldik. Korxonada 15 nafar yosh usta o'z ishiga band, biri hozirgina tog'dan olib kelingan ulkan toshlarni tushirish, yana biri maxsus uskunada marmar yo'nish, boshqasi granitdan plita va bloklar qirqish bilan ovora.

Tohir bobo Rahimov xalqning boy madaniy merosini asrab-avaylash, uni rivojlantirish va avlodlarga yetkazish ishlari o'zi ta'asis etgan ana shu korxona faoliyati bilan munosib hissa qo'shmoqda.

Tohir usta kasbini yana bir xayrli ishga yo'naltirgan: tabarruk qadamjolarini obod qilish ishlarida esini taniganidan buyon beminnat xizmat qilib keladi. Xususan, Abul Mu'in Nasafiy, Hakim Termiziy, Abduxolij G'ijduvoni, Xo'jai Azizxon, Boboyi Samosiy, So'fi Olloyor, Xo'jayi Jarroh, Zangi ota va Anbar otin, Suzuk ota, Shayxontohur maqbara va majmualarini ta'mirlashda asosiy vazifani bajardi. Bunyodkor shoh Zahiriddin Muhammad Bobur ziyoratgohiga 5 tonnalik ramziy qabr o'rnatilishida bor mahoratini ishga soldi. Usta Afg'onistonda hazrat Navoiy maqbarasi uchun sag'ana va eshik, mavlono Lutfiy qabriga marmardan yodgorlik yasaganini hayajon bilan eslaydi:

– Bir kun kelib kimdir Tohir deganlari tosh taroshlab kuni o'tdi-da demaydi, har holda, – deydi Tohir ota Rahimov. – Yoshim oltmish beshga qarab ketyapti. Viloyat Kengashi deputatligiga ham saylab qo'yishgan. Bizning G'ozg'onda tirikchiligidan noliyidigan odam yo'q. Toshning mehnati o'ziday og'ir, lekin g'ozg'onliklarning bastini marmar ko'targan. Shuning uchun bo'lsa kerak, boshqa joylardagiday saylovchilarim meni mayda-chuyda maishiy muammolari bilan bezovta qilmaydi. Yoshlar yangidan, nuroniylar eskidan bilganlariga ko'ra, yaxshi-yaxshi takliflar aytadi. Yuzdan oshiq shogirdim bor. Ularni ham gapga solib,

G'ozg'onda aholining turmush tarzi yanada yaxshilanishi uchun yana nimalar qilish imkonligiga doxil rejalarni tuzaman.

Tohir bobo aytganicha bor: “G'ozg'onda turmushidan arz qilib idoramamda yurgan odamni ko'rmaysiz”. Usta yangi loyihasi ustida zo'r berib ishlamoqda. Shuni aytsa kerak-da, band odamdandalo chiqmas deb.

– Taqdirni qarang, – suhbatda davom etdi bobo. – 1914-yilda Amir Olimxon Abdurahim bobomizga Sitorayi Mohi Xosa hovlisiga o'rnatish uchun marmardan favvora yasashni buyurgan. Bobom buyurtmani bajar-gan, ammo kutilmaganda amirlikning qulashi sabab favvora G'ozg'onda qolib ketgan. Har xil sabab bilan favvora bir necha yeridan uchgan, bir qismida darz yegan joyi bor. Xullas, mo'rtlashgan. Respublika Madaniy meros agentligiga shu favvorani qayta tiklash vazifasi topshirildi. Bir yuz-u o'n yildan keyin bobomning qolib ketgan ishini men yakuniga yetkazar ekanman.

BOBOMEROS BAXT

Darvoqe, “Jadid” muxbiriman deganimga bo'lsa kerak, Tohir bobo gap orasi “Bobomni bilasizmi?” deb qayta-qayta so'radi. “Albatta, sizning bobongizni bilmagan odam bormi?” deyman.

– O'sha bobomga Amir Olimxon ellik gektar uzumzor, Fayzulla Xo'jayev patefon va miltiq sovg'a qilgan, –



deydi usta. – Bobomizni qamab yo'q qilib yuborishdi, lekin mana, uning nomi o'chmadi. Mehnat qilgan ertami-kechmi elda aziz bo'lavarkan. Meni ham davlatimiz orden va medallar bilan mukofotladi. Bobomizning sharafiga bir aylanib menga o'ndi.

Tohir ota qilgan ishlariga kerilmaydi, oldinga qarab, hali niyatlarim ko'p deydi. To'mtoq toshga qadoq qo'li bilan emas, go'zal qalbi bilan shakl beradi. Uning mo'jaz ustaxonasidagi san'at darajasida yasalgan toshbuyumlar ustaning yuksak didi, ajib fasohatidan darak beradi. Xalq amaliy san'atining nodir namunalari bo'lib qolajak ota yasagan laganlar-u shamdonlarni tomosha qilib, inson murodi hosil bo'lishiga jahd qilishi kerakligini ang-ladim.

Shahar maqomini yaqiniginada olgan “oq oltin” diyori – G'ozg'on safari ham tugadi. Lekin bizning yo'llarimiz aslo tugamas. Bu yo'llar qadimdan bugunga, bugundan esa kelajakka olib boruvchi yaxshilik-lar yo'liki, undan fozil-u fuzalolar, daho-yu darg'alar, hunarmand-u oqillar egzulik o'rnatib ketmoqdalar, kelmoqdalar. Ana shu yaxshilik hayotga G'ozg'on marmarlaridek jilo berib turibdi.

Muhayyo RUSTAMOVA



GURUNG

– **Jenisbek, bugun atrofimizda “yulduzlik kasali”ga chalinayotganlar ko’payib borayotgani sir emas. Lekin dunyoga mashhur opera xonandasi sifatida sizda bunday qusur ko’zga tashlanmaydi. Yuz-ko’zingizda kamtarlik sezilib turadi. Ayting-chi, siz uchun mashhurlik nima?**

– San’atkorda o’tish davri bo’ladi. Shu davrda kimdir birdan “yuqorilab” ketadi, kimdir bu jarayonni asta-sekinlik bilan bosib o’tadi. Kutilmaganda balandga sapchigan odamning o’zini tutib olishi qiyin kechadi. Bu ham bir sinov, aslida. Zinadan qadam-qadam ko’tarilayotgan inson yo’l mashaqqatini ko’proq anglaydi. Xalqimizda “kamtarga kamol” degan naql bor. Chinakam san’at ahli orasida toblanib shuni bildimki, manaman degan san’atkorlar ham hammamizga o’xshagan oddiy odam bo’lishgan. Ularning yutug’i – izlanishlarida, tinib-tinchimasligida, har qancha yuksaklikka ko’tarilsa ham o’qib-o’rganishdan qochmaganligida. Muhimi, ular doimo samimiy va kamtar bo’lishgan. Bu borada ulardan o’rnak olsa arziydi.

Biroq birgina qo’shig’i quloqqa o’rnashib qolgani ortidan o’zini mashhur sanab, bosar-tusarini bilmay qoladiganlar ham uchrab turadi. Holbuki, ularning keyingi ijrosi taqdiri qanday kechadi: ommalashadimi-yo’qmi, saviyasi qanday bo’ladi, bular bilan uncha qiziqmaydi. Shu tariqa asta-sekin nazardan qolib, odamlar ularni tinglamay qo’yadi. Ba’zilar bunday “zarba”lardan keyin o’ziga kela boshlaydi. Umuman, ayrim xonandalar san’atning qadriga yetish uchun shunday bosqichlardan o’tishi kerakdek, ehtimol.

– **San’at qadri haqida so’z ochdingiz... Sizningcha, bugun tez tanilish ilinjida estradaga qiziqish ortib ketmayaptimi?**

– Savolingizni operaga qiziqish susayib ketmayaptimi, deya talqin qilsak ham bo’larkan. Keling, shu o’rinda o’z tajribam bilan o’rtoqlashsam. 2007-yili Nukus madaniyat kollejining aktyorlik bo’limiga o’qishga kirganman. Bizda qo’shimcha vokal darsi o’tilardi. Vokaldan saboq berayotgan ustozimga “Vokal ashlularni aytolmayapman, Xorazm lazgilariga ovozim yetmayapti” dedim. Shunda u kishi ovozinmi eshitib ko’rib, “Jenisbek, sen opera aytishning kerak”, deb qoldi. “Nima uchun opera?” deb savol berdim hayron bo’lib. Chunki o’sha paytda nafaqat men, boshqa tengdoshlarim ham opera haqida tayinli tushunchaga ega emas edik. Hozir yurtimizning eng chekka hududlarida unib-o’sib kelayotgan bolakaylar ham opera san’ati xususida ozmi-ko’pmi tasavvurga ega.

Yaqinda Samarqand viloyatining chekka bir qishlog’iga bordim. Shahardan taxminan 300 kilometrcha uzoqlikda. “Bu yerda meni birov tanimasa kerak” deb o’ylagan edim, bir mahal o’g’il-qizlar kelib men bilan suratga tushyapti. Demak, bugun operaga qiziqish kuchaygan. To’g’ri, klassik operalarni emas-u, “hazmi yengilroqlari”ni tinglashyapti odamlar.

Estradaga keladigan bo’lsak, bugun uning ham shaydolari ko’p emas. Aslida, bu yo’nalish yengillashib ketib, bitta akkordli qo’shiqdan nariga o’tolmayapti. Oqibatda odamlarda yengil estradaga moyillik kuchayib ketdi. Oldinlari yetti-sakkiz daqiqali qo’shiqlarni tinglashgan bo’lsa, hozir estrada qo’shiqlari ikki-uch daqiqadan oshmayapti. Davrning shiddati, tezkorligi qo’shiqqa ham ta’sir qilyapti. Shu bois biz klassik qo’shiqlarni ommaga ko’proq jonli ijroda yetkazishga harakat qilyapmiz.

– **Ilk bor sahnaga chiqqan damlaringizni eslay olasizmi?**

– Dastlab estrada, rokn-rol, rep aytganlarimni qo’ya turing, baxshilik ham qilganman. To’rt yil baxshilikka o’qib, “4” bahoga bitirganman. Operaga qiziqish uyg’ona boshlagandan keyin ustozim uch yil kollejdin tashqariga chiqarmagan. Hatto uydagilar ham bilishmagan opera aytishimni. So’ngra Toshkentga tanlovga kelib, 1-o’rinni qo’lga kiritdim. Menga “Nihol” mukofoti topshiriladigan bo’ldi. Ochig’i, bu mukofotni olishimga ishonmaganman. Xullas, birinchi katta sahnam “Xalqlar do’stligi” saroyi bo’lgan va shu joyda muqim qolib ketganman. Daraxt bir joyda ko’karadi, deyshiganidek, 17-18 yildan buyon qayerga borsam



SAN’AT SAYYORASINING FUQAROSI

O’zbekiston xalq artisti Jenisbek PIYAZOV bilan suhbat

ham, yana shu qadrdon sahnaga qaytib kelaman.

– **Siz romans kitoblarini ham yaratyapsiz. Shunday to’plamlardan joy olgan “Ko’rinur” nomli go’zal romans juda mashhur. Shu haqda ham so’zlab bersangiz.**

– “Ko’rinur” – ulug’ bastakor Faxriddin Sodiqov tomonidan Nizomiy Ganjaviy so’ziga bastalangan go’zal lirik asar. Eslasangiz, Ozarbayjonda Nizomiy tavalludiga bag’ishlangan kecha o’tkazilgan. O’shanda Ozarbayjondan Ilhom Nazarov telefon qilib “Ustoz, kitobingizdan “Ko’rinur” romansini o’qidim. Shuni kuylamoqchiman. Ijrom haqida fikringizni bilmogochiman”, dedi. Kitobim Ozarbayjonga qanday borib qolgani bilan qiziqdim. Bilsam, bu kitob Rossiyada ham, Qozog’istonda ham bor ekan. Ushbu to’plam boshqa mamlakatlarga ham tarqalib, undagi qo’shiqlar kuylanayotgani biz uchun katta yutuq, deb o’ylayman.

– **Hozirgacha nechta romans-kitobingiz nashrdan chiqqan?**

– Yigirma oltita romansni o’z ichiga olgan ikkita kitobim bor. Yaqinda yana bir loyiha ustida ishni yakunladik. Unda o’zbek kompozitorlarining fortepiano mo’ljallangan musiqalari jamlangan. Shu yili o’zbek kompozitorining operalaridan ariyalar to’plamini nashrdan chiqarishni rejalashtirganmiz. Bu ham talabalar uchun kerakli qo’llanma bo’ladi, degan umiddaman. Chunki Konservatoriyada o’qiyotganimda ustozim menga rus va Yevropa romanslaridan ijro qilish vazifasini topshirardi. Tabiiyki, ularni internetdan izlardim va audiodis chiqib kelardi. “Zo’r ekan, yodlashim kerak” derdim. Lekin o’zbekcha ariya va romanslar internetda topilmas edi. Konsertmeysterlar esa ularni yaxshi bilmagani uchun g’alatiroq ohangda chalardi. O’shanda o’zbek romanslari va ariyalarining ham audio, video shakllarini yaratishimiz kerakligini tushunib yetganman.

– **Milliy opera san’atimizdagi yutuq va kamchiliklar haqida fikringiz...**

– Asosiy yutug’imiz – xalqimizning operaga qarashi, munosabati o’zgar-gani. Ayni paytda hukumatimiz tomonidan opera ijrochilariga ko’proq e’tibor qaratilayotgani bizni xursand qiladi. Qolaversa, sahnada jonli ijro – bizning katta yutug’imiz. San’at ixlosmandlari buni e’tirof etayotganidan quvonchimiz cheksiz.

Kamchiliklarga kelsak, o’zimizda yangi milliy operalar qo’yilmayapti, shunis og’riqli. Ya’ni, o’zimizning kompozitorlar yozgan operalar yo’q. Bu borada kompozitorlar “biz yozyapmiz, ular qo’ymayapti” deyisha, teatr “ular yozayotgan asarlar bizga to’g’ri kelmaydi” deb javob beradi. O’rtada aybdor biz – solistlar bo’lib qolyapmiz.

Vaholanki, biz ijrochimiz, har qanday qo’shiqni ijro etib bera olamiz. Kompozitor yozmasa yoki yozganini teatr qabul qilmasa... bu bilan biror samarali o’zgarish bo’lishi qiyin.

Teatr kompozitorlar ijodidan boxabar bo’lib turishi kerak. Ana shu xabardorlik ortidan asarlarni saralash, yaxshilariga buyurtmalar berish, mualliflarini rag’batlantirish mumkin. Nega hadeganda chet el operalarini xarid qilib, bu yerda sahnalashtirishimiz kerak. O’zimizda ham zo’r operalar yaralishiga harakat qilish, xalqni bu san’atga qiziqitira bilish lozim. Uzoqqa bormaylik, hozirgacha aylanib-aylanib, “Maysaraning ishi” (Sulaymon Yudakov) operasini aytamiz. Negaki, pichoqqa ilinadigan boshqa milliy komik opera yo’q, afsus. Borlari ham “o’ldim-kuydim”dan nariga o’tmaydi, bugungi kun talablariga javob berolmayapti. Yosh ijrochilarning talabi katta. Ular klassika bilan birga, zamonaviy asarlarni so’rashyapti. Buning uchun orkestrga qaysidir cholg’uni qo’shish kerak bo’lsa – qo’shish kerak, tepadan sahnaga tushish zarurati bo’lsa tushish, xalq orasidan kirib kelish lozim bo’lsa, shunday qilish kerak. Chet el opera teatrlarida bu borada ko’p amaliy ishlarni kuzatamiz.

Germaniyadagi Myunxen teatrida ishlaganimda “Aida” operasi sahnalashtirildi. O’sha paytda “Avatar” filmi butun dunyoda ommalashib ketgan edi. Shu film eskizidan foydalanib, Aida va Radames boshqa-boshqa sayyoralarda yashagan qahramonlar sifatida talqin qilindi. Radames Marsni bosib olish uchun “avatar” obrazida mazkur sayyora-ga keladi. Kutilmaganda u Marsda yashayotgan Aidaga duch kelib, uni sevib qoladi. Bu yoshlarga qiziq, albatta. Shu asar yil davomida ko’p taqdim etildi. Yoki “Esmeralda” myuziklining ohangini eshitgan hamonoq ko’zimiz chaq-nab ketadi. Chunki bu qo’shiq operaning “tashrif qog’oz”i”ga aylanib bo’lgan. Imkoni bo’lsa, bizda ham ana shunday “tashrif qog’ozlari”ni ko’paytirish zarur.

– **San’at odami qalb bilan ish tutadi, qalbg bo’ysunadi, ko’pincha uning yo’rig’idan yuradi. Nima deb o’ylaysiz, qalbg quloq tutgan yaxshimi yoki aqlga?**

– Aqlga! Chunki aqlga tayansangiz, muammongiz kam bo’ladi. Agar ko’ngilga quloq solsangiz... u nimalarni xohlamaydi?! Biroq aql bilan doimo chora izlab, yo’l topsa bo’ladi. Yana shuni tushunib olishimiz kerakki, yutqazish ba’zan yutuqqa teng, yutuqdan ham a’loroq bo’lishi mumkin. Goho qo’ling baland kelgani bilan ko’ngling xotirjamlikni tuymasa, shuning o’zi yutqiziq. Qalb va aql tanlovda ana o’sha yutish va yutqazish holatlari to’g’ri chamalab

olinsa, qay biridan ko’proq halovat kelishi anglab olinsa, shuning o’zida g’oliblik nashidasi bor. Bu hol dunyo tajribasidan ayon. Men bo’sh vaqtim bo’ldi deguncha kitob o’qishga harakat qilaman. “Temur tuzuklari”da shunday fikrni o’qib, uni o’zimga shior qilib olganman: “Hamma narsani bilaman-u, lekin bilmaslikka olaman”. Barchamiz mana shu aqidaga amal qilib yashasak, ko’proq umr ko’ramiz, halovatimiz o’zimizda bo’ladi.

– **Halovatsizlik dard chaqirishi ham mumkin-da...**

– O’zi, ijod – bedorlikning egizagi. Dard esa halovatsizlik degani. Aslida, dardni ichga yutmaslik kerak. Uni ijod shaklida bo’lsa ham yurakdan chiqarib yuborgan ma’kul.

– **Kelgusi rejalaringiz, orzu-maqsadlaringiz ham, shubhasiz, muxlislaringiz uchun qiziq.**

– Bu yil muxlislaringizga taqdim etmoqchimiz. Bu asarda menga ham bir partiya tekkan. Asosiy ishim – o’sha partiyani yod olish. O’tgan yili italyan tilidagi partiyalarni yodlagan bo’lsak, bu yil fransuz tilida yodlaymiz. Tilimizni “har qanaqasiga burab”, bizni sinashyapti. Opera aynan ko’ptillilik nuqtayi nazaridan ham foydali. Bu borada ozmi-ko’pmi tajriba to’pladik. Avvaliga Nukusdan Toshkentga kelib o’zbekchani, so’ngra Moskvaga bor-ganda ruschani o’rgandim. Keyin inglizcha, italyancha... mana endi fransuzcha. Muhimi, til o’rganyapman. Til rang-barangligi – katta boyligim.

Bu yil rejaga ko’ra, Vashingtonda konsert bermoqchimiz, keyin Nyu-Yorkda. Finlyandiya o’stim bilan Toshkentda chiqish qilib, so’ng dasturimizni ularda namoyish qilmoqchimiz. Bu yoqda “Koxman ertaklari” ham turibdi. Xullas, ish tartibimiz nihoyatda tig’iz.

– **Harakatlaringiz tahsinga loyiq.** – “Vavilonidagi eng boy odam” kitobida o’qigandim: “Agar har bir odam o’z ishini rivojlantirib bormasa, ishi orqaga ketadi”. San’atkor ham o’rganish, izlanishdan to’xtamasligi kerak.

– **Shunday o’ylovlar, ijod, yumushlardan ortib...**

– ...Oilamga qanchalik vaqt ajrata olyapman?! O’rinli savol. Farzandlarim “Dada, siz doim ishdan bo’lasiz, biz bilan shug’ullanmaysiz”, deb o’pkalashadi. Shu bois uzoqqa otlanadigan bo’lsam, oilamni ham birga olib ketishga urinaman. Bir gal to’ng’ichimni Samarqandga olib bordim. Keyin o’rtanchasi ham “boraman”ga tushib qoldi. So’ng kenjatoyim. Aslida, bu yo’llar ular uchun avvalo sayohat, qolaversa, ishimni ko’rib, safar mashaqqatlaridan boxabar bo’lishadi. Ko’pincha ularni akademiyaga, poytaxtimizdagi Temiryo’lchilar madaniyat saroyida o’zim tashkil etgan “Piyazov akademi”ga olib kelaman. Darslarimni kuzatishadi, shu muhit havosidan nafas olishadi. Eshlasam, vaqtda o’zim ham nuqul dadamga ergashib yurganman, u kishiga cholg’ularni joylashtirishda yordam berardim, o’sha paytlar qiziqish ustunlik qilib, o’zimcha ularni cholib ko’rardim. Ayni paytda dadamning atrofda-gilar, yaqin o’rtloqlari, mehmonlar bilan qanday suhbatlashayotganini kuzatardim... Umuman, hayotni o’ziga xos dars-ga qiyoslash mumkin. Oilaviy hayotga kelsak, uyga borgan-da farzandlarimning darslarni qanday o’zlashtirayotganini tekshirib boraman. Shunaqa gaplar.

– **Tushunishimcha, siz otangiz tufayli san’atga qadam qo’ygansiz?!**

– Men san’at muhitida o’sganman. Buvam Ziyel Piyazov Qoraqalpog’iston xalq artisti, O’zbekistonda xizmat ko’r-satgan artist, dramatik aktyor bo’lgan. U kishining birgina “Hey” degan ovozi sahnani titratib yuborgan. Men ham ana o’sha mo’jizakor “hey” sadosining qudrati bois aktyor bo’laman deganimda, ustozim maqsadlarimni boshqa tomonga burib yuborgan. Bundan afsuslanmayman. Chunki opera xonandasi sahnada nafaqat ovozi, balki aktyorlik mahorati bilan ham tomoshabin diqqatini ushlab turishi kerak. Xullas, bu kasbni tanlashimga oilaviy muhit sababchi bo’lgan. “Bu sayyorada faqat shu kasb bor”, degan ibora qulog’ingizga chaligan bo’lsa kerak. Biz ham oilaviy tarzda san’at sayyorasida yashaganmiz va yashayapmiz.

Guilchehra UMAROVA
suhbatlashdi.

FESTIVAL

DO’S TLIK CHINORI

Bag’ri va ko’ngli keng mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari tinch-totuv yashamoqda. Vatandoshlarimiz to’laqonli hayot kechirishlari, o’z milliy an’analari va qadriyatlarini rivojlantirishlari uchun 157 ta milliy-madaniy markaz, 42 ta do’sstlik jamiyati qizg’in faoliyat olib boryapti. Milliy madaniy markazlar faoliyatini rivojlantirish uchun hududlarda “Do’sstlik uylari” tashkil etilgan bo’lib, har yili Parlament fondi tomonidan moliyaviy qo’llab-quvvatlanadi. Shuningdek, xorijdagi yuzdan ortiq vatandoshlar jamoat birlashmalari davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda yurtimizda do’sstlik va bag’rikenglik muhiti, milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg’unligini mustahkamlash, chet ellar bilan madaniy-ma’rifiy aloqalar, xalq diplomatiyasini har tomonlama rivojlantirish bo’yicha dasturiy amaliyot olib bormoqda.



2021-yildan boshlab 30-iyul sanasi yurtimizda Xalqlar do’stligi kuni sifatida keng miqyosda nishonlab kelinmoqda. Prezidentimizning ushbu ayyom munosabati bilan O’zbekiston xalqiga yo’llagan tabrigida yurtimiz zaminida qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan etnik xilma-xillik noyob ijtimoiy hodisa ekani, bugun – Yangi O’zbekiston sharoitida esa bu yangicha ma’no-mazmun va an’analariga ega bo’lib borayotgani alohida qayd etildi.

Davlatimiz rahbarining qutlovida, jumladan, shunday satrlarni o’qiy-miz: **“Dunyoning turli mintaqalarida milliy va diniy asosda turli nizolar davom etayotgan hozir-gi o’ta tahlilali sharoitda yagona O’zbekiston g’oyasi asosida eng katta boyligimiz – yurtimizdagi osoyishtalik va barqarorlik, o’zaro hurmat va totuvlik muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bilim-ma’rifat, kasb-hunarlar egasi etib tarbiyalash, inklyuzivlik tamoyillarini chuqurlashtirish borasidagi ishlarimizni kelgusida ham izchil davom ettiramiz”.**

25–31-iyul kunlari O’zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatan-doshlar masalalari bo’yicha qo’mi-ta tomonidan uyushtirilgan “Do’sstlik” festivalining mohiyatida ham Yurtboshimiz ta’kidlagan ezgu g’oyalar o’z aksini topgan. Ushbu anjuman yuqori saviyada o’tkazildi. Bir hafta mobaynida taqdimotlar, xalqaro anjumanlar, musiqiy dasturlar, ko’rgazmalar, hu-narmandchilik yarmakalari, ijodiy uchrashuvlar, tanlov va ko’ngilochar konsert dasturlari taqdim etildi.

Festival arafasida milliy madaniy markazlar pavilonlarining ochilgani mamlakatimizda yashab kelayotgan barcha millat va elatlarning o’z madaniyati va urf-odatlari, an’analari saqlab qolish, rivojlantirish uchun yana bir ulkan imkoniyatga aylandi. Pavilonlar o’zaro madaniy almashinuv maydoni vazifasini bajarishi ko’zda tutilgan.

– Yurtimizda kechayotgan yangi-lanish jarayonida millatlararo totuvlik, o’zaro ahillik va birodarlik davlat siyosatining ustuvor yo’nalishiga aylangan. Ko’p millatli xalq vakil-larini o’z atrofiga birlashtirib, bag’ri-kenglikni, tinchlikni, birodarlikni tarannum etgan “Do’sstlik” festivali ham bu boradagi oqilona hamda uzoqni ko’zlovchi siyosatning amal-dagi yorqin namunasidir, – deydi Qo’mi-ta raisining o’rinbosari Behzod Shukurov. – Tadbirning uyushqoqlik bilan tashkil etilishi mamlakatimizda millatlar o’rtasidagi hamjihatlik, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, jamiyatimizda

o’zaro hurmat, mehr va bag’rikenglik muhitini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkman madaniyat markazi raisi Guldana Avezdurdievyaning taassurotlariga ham quloq tutdik:

– Jonajon yurtimizda milliy madaniy markazlarning samarali faoliyati uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Biz, milliy madaniyat markazlari vakillari har doim hamkorlikda qator loyihalarni amalga oshirib kelyapmiz. Hozirda O’zbekistonda turkman millatiga mansub 202 mingdan ziyod kishi istiqomat qiladi. O’zbek va turkman xalqlari qadimdan azim Amudaryoning ikki qirg’og’ida ahil-inoq yashab kelayotgan qondosh-qarindoshlar sanaladi. Ikki elning urf-odati, qadriyatlari bir-biriga hamohang. “Do’sstlik” festivali tadbirlarida markazimiz vakillari ham yaxshigina faollik ko’rsatishdi. Bularning barchasi O’zbekistonda inson qadri va sha’nini ulug’lash, barcha millat va elat, diniy konfessiyalar vakillariga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo’lish borasida olib borilayotgan odilona siyosatdan dalolatdir.

Har yili haftalik doirasida Ozarbayjon milliy madaniy markazining faoliyati yuqori baholanadi. Buning o’ziga xos sabablari bor, albatta. Bu haqda markaz boshqaruvi raisi Mobil Mamedov shunday deydi:

– BMT Bosh Assambleyasi qaroriga muvofiq, 30-iyul butun dunyoda Xalqaro do’sstlik kuni sifatida nishonlanadi. O’zbekistonning kuchli bag’ri-kenglik siyosati tufayli bu bayram, mana bir necha yillardan beri haftalik festival shaklida o’tkazib kelinmoqda. Ko’p millatli xalqimiz bu sanani ko’tariniki ruhda kutib olmoqda. Ayniqsa, O’zbekiston Prezidentining tabrigidan o’rin olgan “Biz o’zining halol mehnati, vatanparvarlik fazilat-lari bilan respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga be-qiyos hissa qo’shib kelayotgan turli millatga mansub yurtdoshlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz”, degan so’zlardan nihoyatda shodlandik. Tabiiyki, quyosh mo’l-ko’l nur sochib, muhit obi-tobida bo’lsa, har qanday bog’ gulshanga aylanadi. Biz jona-jon O’zbekistonimizni ana shunday firdavs bog’iga qiyos qilamiz.

*Daraxt daraxt bo’lmas
quruq shox bilan,*

*Ko’rk va meva topar
ming yaproq bilan,*

– deb yozgan edi buyuk nemis shoiri Fridrix Shiller. Yangi O’zbekistonimizdagi “shoxlari osmonlarga tegib turgan” do’sstlik chinorining qaddi-bastiga ko’z tegmasin.

Zarnigor IBROHIMOVA



“Asrlar va yillar davomida turli etnik va milliy o’ziga xosliklar bilan uyg’unlikda yashovchi turkiy xalqlar dunyodagi tinchlikning garovidir.

Numan KURTULMUSH
(Turkiya Buyuk Millat Majlisi Spikeri)

”



Boshlanishi 1-sahifada.

Bir kuni qosh qorayganda 23-avtobusga chiqdim-da, o'tirishga joy qidirdim. Orqa eshik oldida bo'sh joy bor ekan. Borib o'tirdim. Shu asnoda eng orqa o'rindiqning burchagida plashiga burkanib o'tirgan kishiga nigohim tushdi. U ko'zimga issiq ko'rindi. Joyimga o'tirdim-u o'yg'a toldim: "Qayerda ko'rganman uni? Juda tanish... Ha, bo'ldi, esimga tushdi. Bu yozuvchi O'tkir Hoshimov-ku. Xuddi o'zi..." Sekin, zimdan ko'z tashladim: "O'sha, O'tkir Hoshimov. "Cho'l havosi" degan qissasini "Sharq yulduzi"da o'qiganman. Jurnalda surati ham berilgan edi. Borib salomlashsammikan? Nima deyman? U tanitqi yozuvchi bo'lsa, men kimman? Universitetning ikkinchi kursida, yana kechki bo'limda o'qiydigan bir talaba bo'lsam..." Xullas, borishga jazm etmadim. Biroq dam-badam zimdan qarab qo'yaman. U avtobusda o'zidan boshqa hech kim yo'qdek, bir nuqtaga tikilib o'tiribdi. Nazarimda, nimalar haqidadir xayol surib borayotir. "O'tkir aka ham shu tomonda turarmikan?" Men manzilga yetgach, tushishga hozirlandim. O'tkir aka hamon o'sha alpozda o'tiribdi. Avtobus to'xtadi. Men tushdim. Avtobus jilgunicha bekatda turdim. "Balki O'tkir Hoshimov ham tushar. Bordi-yu tushsa, zo'r bo'lardi, tanishib olardim". Yo'q, tushmadi. Avtobus yo'lida davom etdi. U bilan O'tkir Hoshimov ham ketdi. Avtobus ko'zdan g'oyib bo'lguncha qarab turdim. Keyin o'zimni koyidim: "Nimaga bormading oldiga? Muncha lallaymasang".

Shu xayollar bilan ijaraxonamga bordim. Miyamda O'tkir Hoshimov degan yozuvchi, uning "Cho'l havosi" qissasi aylanaverdi. "Qanday baxtli yozuvchi. Birinchi qissasidan mashhur bo'ldi. Abdulla Qahhorday ulug' yozuvchining nazariga tushdi... "Cho'l havosi" zo'r asar. Botir bilan Ziyodaning muhabbati havas qilgulik... Zo'r yozgan-da..."

Shundan keyin har gal 23-avtobusga chiqsam O'tkir akani qidiradigan bo'ldim. Eng orqa o'rindiqqa ko'z tashlayman. Go'yo u kishi doimo o'sha yerda o'tiradigandek. "Endi ko'rsam, albatta oldiga boraman, tanishaman".

Omadim chopdi. Bir kuni odatdagiday avtobusga chiqdim-u, orqa o'rindiqqa qaradim. Ne ko'z bilan ko'rayki, xuddi o'sha joyda o'tiribdi O'tkir aka. Suyunib ketdim. Bir necha kun oldin ko'rganimday plashiga burkanib, hech kimga e'tibor bermay o'tiribdi. Men ham orqa o'rinlardan joy izladim. Maqsad – O'tkir Hoshimovga yaqinroq o'tirish va imkon topib oldiga borish. Qani edi, yondosh joy bo'shasa. Avtobus uch-to'rt bekat yurgach, O'tkir akaning yonida o'tirgan kishi tushib ketdi. Darhol o'sha joyga o'tib oldim. O'tkir aka yonidagi odam tushib ketganiga ham, men borib yoniga o'tirganimga ham e'tibor bermadi. Nima deb gap boshlashni bilmayman. Vaqt o'tyapti, manzilinga yaqinlashyapman. Avtobus kutilmaganda qattiq tormoz berdi. Barcha yo'lovchilar qalqib ketdi. Haydovchining so'kingani eshitildi. O'tkir aka o'rindiqliqni qattiq ushladi-da, menga qaradi: "Nima



bo'ldi?" "Bilmadim... Kimdir ko'chani bexos kesib o'tdi, shekilli" dedim. Avtobus yana bir maromda davom etdi. Bu holat O'tkir aka bilan gaplashish imkonini bergandi menga.

– Men Sizning "Cho'l havosi" qissangizni o'qiganman, – dedim tomdan tarasha tushganday. O'tkir aka yalt etib menga qaradi.
– Yoqqanmi?
– Judayam... Botirga havasim kelgan... Maktabimizda hamma qiziqib o'qigan.
– Maktabda o'qiyisizmi?
– Qissangiz jurnalda chiqqanda o'quvchi edim. Hozir universitetda o'qiyman.

Endi O'tkir aka men tomonga o'girilib oldi.
– Shunaqami? Qaysi universitetda, kim bo'lmoqchisiz? – deb qiziqdi.

Men o'zimni ancha tutib olib, bemalol suhbatlasha boshladim.

– ToshDUda, jurnalist bo'lmoqchiman.
Bu gapim u kishini qiziqtirib qo'ydi.
– Iye, zo'r-ku. Hamkasb ekanimiz-da, – dedi jilmayib. – Nechanchi kursdasiz?

– Ikkinchi... Faqat kechqurun o'qiyman.

– Kunduzgiga kirolmadingizmi?

– Men kelganimda jurnalistikaning kunduzgisi yo'q ekan. Toshkentliklar kechkiga, viloyatdan kelganlar sirtqiga qabul qilinlar ekan. Men noiloj sirtqiga topshirdim. Ammo kechkida o'qiydiganlar bilan o'qishga qatnab yuribman. Keyinchalik kunduzgiga o'tarman.

– Kunduzi biron joyda ishlaysizmi?

– Ha. Avval qurilishda ishladim. Yaqinda "O'zbekiston madaniyati" gazetasiga ishga kirdim.

– Zo'r-ku, – dedi O'tkir aka, astoydil xursand bo'lgani sezilib turardi. – Laziz akadami? U kishi zo'r olim. Universitetda ham dars beradi.

– Bilaman, bizga ham dars o'tganlar.

– Yaxshi qipsiz. Men ham avval sirtqi bo'limda o'qiganman. Keyin kunduzgiga o'tganman. Jurnalistikada redaksiyada ishlashning ahamiyati katta. Men "Toshkent haqiqati" gazetasida ishlayman. Bir keling redaksiyaga, gaplashamiz, – dedi mehribonlik bilan.

Shundan keyin bir-ikki u kishining oldiga bordim. Nima yozishim bilan qiziqdi. Xullas, ancha yaqinlashib qoldik. O'tkir akaning birin-ketin yangi asarlari chiqa boshladi. "Shamol esaveradi", "Odamlar nima derkin" qissalari e'lon qilindi. Ayniqsa, "Bahor qaytmaydi", "Qalbingga quloq sol" qissalari unga shuhrat keltirdi. "Bahor qaytmaydi" bo'yicha telerejissyor Mirabbos Mirzaahmedov ko'p qismli telefilm ishladi. Bu esa asar dovru'g'ini yanada oshirdi.

Keyin "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Dunyoning ishlari", "Tushda kechgan umrlar" kabi asarlari chiqdi. Bir qancha pyesalari poytaxt va viloyat teatrlarida sahnaga qo'yildi.

Men O'tkir akaning barcha asarlarini sanab o'tish va tahlil qilishdan tiylaman. Ular haqida ko'p va xo'b, yozilgan. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Abdug'afur Rasulov singari ustoz adabiyotshunos va munaqqidlar teran tahlil qilishgan. Qolaversa, bu asarlarning barchasini kitobxonlar sevib o'qigan. O'tkir Hoshimov kitoblari qayta-qayta nashr qilingani va 80-yillardayoq asarlari adadiga ishora o'laroq "millioner yozuvchi" nomini olgani ham bu fikrga dalil bo'la oladi. O'tkir akaning avvalo farzand, so'ngra yozuvchi sifatida onasiga bo'lgan hurmati, muhabbati xususida muxtasar fikr yuritmoqchiman.

Onani yo'qotish har bir farzand uchun og'ir judolik. Onaning necha yoshga borgani, farzand

necha yoshdaligi, mansabi-yu jamiyatdagi mavqeyining ahamiyati yo'q. Onadan ayrilish eng og'ir musibat. Albatta, bu musibatni har kim har xil qabul qiladi, boshdan o'tkazadi. Ana shu nuqtayi nazardan O'tkir Hoshimovning onasi vafotidagi holati sira xotiramdan chiqmaydi. Janozada qatnashgan edim. Ochig'i, o'sha kuni O'tkir akaning holatini ko'rib, yig'lamagan odam qolmadi, desam ishonavering...

Oradan ko'p o'tmay O'tkir aka "Dunyoning ishlari" degan go'zal bir kitob insho qildi. Bu kitobni shunchaki o'qib bo'lmaydi. Har qanday bag'ritosh odamning ham yuragi zirqirab ketadi uni o'qiganda. Ona to'g'risida, ularning buyukligi, o'rni haqida ne-ne ulug' zotlar yozgan. O'tkir Hoshimov bu nihoyatda qadimiy, mangu va aytilish mumkinki, tabarruk mavzuga mutlaqo boshqacha rakursda yondashgan. O'zbek onalarining naqadar mehribonligini, oilasiga, farzandlariga, hatto qo'ni-qo'shnilariga mehr-muruvvatini g'oyat aniq detallar bilan sodda tilda tiniq ifodalab bergan. Ushbu asarni o'qigan har bir o'zbek o'z onasini tasavvur qiladi. Zotan, ulug' shoirimiz Abdulla Oripov yozganidek,

Ona ketsa, yulduz-ku yulduz,

Qulab tushsa arzidiy osmon.

Birgina misol keltiraman. Ancha yil oldin Toshkentga kelgan amerikalik o'zbekshunos bir olim "Dunyoning ishlari"ni o'zbek tilida o'qib, dod solib yig'lab yuboradi, onasini juda qattiq, chidab bo'lmas darajada sog'inganini aytib, safarini oxiriga yetkazmay uyiga qaytib ketadi. O'ylaymanki, bu misolga izoh-u tahlilning hojati yo'q. Yuqorida eslaganimiz rejissyor Mirabbos Mirzaahmedov shu qissa bo'yicha ko'p qismli telefilm ishladi. O'zbekiston xalq artisti Saidkomil Umarov bosh qahramon rolini qoyilmaqom qilib ijro etgan. Bu film shu paytgacha O'zbekiston televideniyesi orqali necha marta namoyish etildi – aniq aytilish qiyin.

Bu kitobi bilan O'tkir Hoshimov nafaqat o'z onasiga, umuman, zahmatkash o'zbek Onalariga mangu haykal qo'ydi! Kitob rus tilida ham nashr etildi. Uni muallifning o'zi tarjima qilgan. Zero, asardagi tuyg'ularni, hayajon-u armonlarni hech kim – eng mahoratli, eng zo'r mutarjim ham muallif darajasida his eta olmasdi...

O'tkir Hoshimov adiblik bilan ijtimoiy faoliyatini qo'shib olib bordi. Turli mas'ul lavozimlarda ishladi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinbosari, "Sharq yulduzi" jurnalida bosh muharrir, Oliy Majlisning Matbuot va axborot qo'mitasi raisi kabi mas'uliyatli lavozimlarda samarali mehnat qildi. Ijtimoiy faoliyati davomida asarlarida kuylangan adolat, halollik, inson qadri, millatimiz sha'ni va obro'yini ulug'lash, ona tilimizning nufuzi va mavqeyini ko'tarish, nafosatini

namoyish etish, muqaddas dinimizni qadrlash kabi ezgu ishlarga alohida e'tibor qaratdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Qur'oni Karimning o'zbek tilidagi ilk muxtasar tafsiri shayx Alouddin Mansur tarjimasida aynan O'tkir Hoshimov bosh muharrirlik davrida "Sharq yulduzi" jurnalida bosildi.

Biz O'tkir aka bilan doimo hamkorlikda ishladik. Ayniqsa, u kishi Oliy Majlisning Matbuot va axborot qo'mitasi raisi bo'lib ishlagan yillarda (1995–2005) juda baqamti faoliyat olib bordik.

O'sha kezlari men O'zbekiston Milliy axborot agentligi rahbari edim. Lavozimim taqozosiga ko'ra Oliy Majlis yig'ilishlarida, boshqa yuqori idoralar, nufuzli tashkilotlarda bo'ladigan majlislarda qatnashardim. Ana shu mashvaratlarda ko'pincha O'tkir aka bilan uchrashar, suhbatlashar, ayrim muhim masalalar yuzasidan maslahatlashar edik. Shunaqa gaplar orasida O'tkir aka "ljod nima bo'lyapti? Biron narsa yoza olyapsizmi? Vaqt bo'lyaptimi?" deb so'rab qolardi. Sezardim, bu gapni ichki dard bilan, o'tayotgan vaqtga achinish bilan aytardi. Men kulib qo'ya qolardim. Bu kulgining ma'nisini u kishi yaxshi bilardi. "Tushunaman... Lekin harakat qiling... Siz-u bizdan qoladigani shu bo'ladi", derdi. Koshki edi, u vaqtlarda biron nima yozishga imkon bo'lsa. Oq qog'ozni qoralamoq ketmon chopish emas-ku... Ammo hech kinga hech nimadan nolinganim yo'q. O'sha ishlarni ham kimdir qilishi kerak edi-da. Hamma o'zini chetga olsa, faqat shaxsiy ishi bilan mashg'ul bo'lsa, u ishlarni kim qilardi?.. Har ne vaqti-soati kelganda amalga oshar ekan. Shukur qilmoq kerak...

Shu mazmunda ko'p guruh qilganmiz O'tkir aka bilan...

Mening ijodiy faoliyatimda ham O'tkir akaning yordami va maslahati ko'p bo'lgan. Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilinishimda tavsyanoma berganini, bir hikoyalar to'plamimga taqriz yozib, nashriyotga tavsiya etganini unutmayman.

O'tkir aka ko'ngli ochiq, samimiy, dilkash, o'zgalaridan, xususan, yoshlardan yordamini ayamaydigan bag'rikeng inson edi.

U kishi umrining so'nggi yillarida og'ir dardga chalindi. Oxirgi marta kimningdir janozasida ko'rdim. Og'ir jarrohlik amaliyotini o'tkazganidan xabarim bor edi. Ancha o'zini oldirgan, ammo ruhi tetik, ayniqsa, ko'zlari chaqnaq turgan edi. Bu hol u kishining irodasi mustahkam ekanidan dalolat berardi.

O'tkir Hoshimov 2013-yilda bu foni dunyoni tark etdi. Adib bunday yozgan edi: "Yaxshi farzand ota umrini davom ettirgani kabi yaxshi asar yozuvchi umrini davom ettiradi". O'tkir akaning asarlari qayta-qayta nashr etilmoqda, hamon sevib o'qilmoqda. Demak, yozuvchining umri davom etmoqda.

Mamatqul HAZRATQULOV

ATLAS KIVIB, ATIR SEPGAN CHAMANIM...

Boshlanishi 1-sahifada.

CHIROYLIGIM

Oppoq bo'lib gullagan hu bog'lar go'zal, Ko'kayidan qor ketmagan tog'lar go'zal. Chiroyligim, qoshingda men xijolatdan Qizg'aldog'man, bag'rimdagi dog'lar go'zal. Sof ishqdirman, garchi haqqa yetganim yo'q, Sen go'zalling o'khasidan ketganim yo'q. Kechir, ko'ngling changlatdim-u bolariday, Gulim, senga mukkasidan ketganim yo'q. Jondan ortiq sevganim, gulbadanimsan, Atlas kiyib, atir sepgan chamanimsan. Ayni bahor chog'i ko'nglimga cho'g' solgan, Chiroyligim, gulday go'zal Vatanimsan. Jonim bilan qo'yay go'ling xinasini, Yashirsa shu qo'lgadog'i, ginasini. Farzand borki qo'ligul, o'z otasiga Pardoq qilmay ko'rsatmaydi onasini. Istaymanki, mayli, mensiz qomati dol, Yaproqlarning poyiga bosh qo'ysin hilol, Chiroyiga chiroy qo'shsin hatto qabrim Bo'lib ona O'zbekiston labiga xol...

JO'MARDIM – ONAM

Suratingga boqib, jo'mardim, otday bo'lib ketdi yuragim, devonaman ishqingda, sendan qachon bunday shifo so'radim?!

Ko'zlarimga g'am tortiq qilib, turolmayman yo ortiq kulib, netay, hamon yuragim sensiz urib turar nomardik qilib.

“Yor” – Zebo, men – Yozi emasdim, shirin ekan nozi, bilmasdim, bilganimda makrini, zinhor ishvasiga rozi bo'lmasdim.

Sen bir tanti Turkonim eding, xonim eding, sultonim eding, onam – so'nggi imkonim eding, yuragingni menga-yu, jon deb, jigaringni besh bolangga berding.

MANZARA

Atirgullar ochib og'zini katta, nomozshomgullar kuch olmoqda shomdan, o, oltin tuprog'im, seni deb hatto quyosh ham o'zini tashladi tomdan.

dildagi arzimas ishq olovini eplolmay oldirib qo'ydim alanga, kir qilib boshiga qo'ngan qirovni, qirlarni qirganda piri faranglar;

jilmaydim so'ng Xudo haqqi-hurmati, bo'g'zinda tosh qotgan o'krigim bilan va ko'zga ko'ringan jonim suratini supurib tashladim kiprigim bilan

va birdan keltirib suvni elakda, shamol erkaladi bog'-u bo'stonni, bahor cho'miltirib qo'ydi: chelaklab boshidan suv quyib O'zbekistonni.

VATAN RASHKI

Mening yurtim jannatmonand go'zal go'sha, Rashk qilaman uni Otelloga o'xshab. Kiyiklari qadamiga mushk sochadi, Kiprigining soyasini yerga to'shab.

Mo'min elda aziz Sayrob baliqlari, Qoyil qilgan Charchelni qilquyruqlari. Ka'badayam ko'nglim qo'msar: "Uyga borsam, Kutar meni sharbat oqqan ariqlari". Qizg'onaman bu elni nojoizlardan, Otasiga el bo'lmagan beyuzlardan. Haydarqulday hojisini o'zi tugul Kalishini tortolmagan poyezdlardan. Men Vatanni rashk qilaman kibr ketgan Nokaslardan – valiylarni Sibir etgan. Darig' tutgum uni men oqqadarlardan Ulug'bekdek zotlarning boshiga yetgan. Qon dilini ko'tarolmay qomati dol, Anorlari hassasiga suyangan chol. Har ignaday nur ostida yulduz nihon, Ona yerga yonib sajda qilar hilol. Rashk qilaman bu yurtini el bazarlardan, Qizg'onaman har qanday yot nuzarlardan. Qizg'onadi Xudo ham o'z jannatini Onasini turtgan xudobezorlardan.

AZIZLARIM

Men uchun bu yurtning iti ham aziz, Mo'chchayib bet yuvgan mushukchasi ham. Jonimdan azizdir inida yolg'iz Tuxum bosib yotgan musichasi ham.

Jonim fido bo'lsin echkim, qizimga, Aylanayin Vatani qilsang, yor sandan. Tomi qiyshiq uyim, itim ko'zimga Bir yaxshi ko'rindi hamma narsamdan.

Biram rohat qildim men bug'doy o'rib, Garchi bel og'riqdan jonim qiynalar. Zavqimni toshirdi bolasin qo'rib Mushugimni mayna qilgan maynalar.

Azizdir bu yurtning shuvog'i-u burgan, Bola chuchoqlagan makkalari ham. O'lmasin tepamda shaqqillab turgan Olashaqshag'i-yu hakkalari ham.

ERKAM

Vatanim, gul uzgan qiz soyasiday Hatto xaritang ham go'zallikka boy. Yangi tashbeh topgan zukko shoirday O'zicha kerilar yangi chiqqan oy. Sen Barchin tuslisan. Polvon kelbating. Ayt, kimni rom etmas qaddi-qomating? Senga chil bermoqchi bo'lgan kaslar ham Yon bersa, tog'larcha bordir himmating. Ko'rdimki, enamdek paxta chigitlab, Kimki el bo'lmasa qilding o'gitlar. Taqimingni o'pgan ikki o'rim soch, Labingni qo'riqlar arslon yigitlar. Sen suluv zotining norisan, bu kam, Alpomish naslining yorisan, o'lkam. Tizzangga bosh qo'ygan quyoshing bo'lib Koshki bir yuzingni yoritسام, erkam.

SURXONDARYO SURATI

Bir patnis don undirib, bir olam rizq ko'targan Bobotog' etagida oy ham katta ketarkan. "Ko'klamda bu go'shani men nimaga qiyoslay?! Suratin chizib ber", deb qisinding sen quyoshday. Ko'z oldimga cho'ng lagani ko'targan tog'day odam Sumalak maysasini keltirib qo'ydi shu dam. Dedim: "Har patnisda bol tutib uzoq-yaqindan, Bu dilbar yurtini uch alp turtib turar biqindan. Koshki, men bir yumalab, Bobotog' bo'lib qolsam, Tizzamga olib oyni o'ynatib o'tirolsam. Zabardast bilaklarim bilan qurshab har yonni, Quchoqlab olar edim go'zal Surxondaryomni".

BO'YLARINGDAN O'RGULAY

O, yurtim, go'zal yurtim, surating ko'zga surdim, Yomg'irday kokilingdan mani umrim bir qultum. Daryoday go'sh uraman, poyingga bosh uraman. Seni o'z jonimdan ham ko'proq yaxshi ko'raman. Suluvsan, tuprog'ing zar, suvlaring erur kavsar, Naq quyoshning ko'zida gulladigan urib chappar.



Bog'larim – oqbilagim, gulga to'la yuragim, Onamsan, jannatimsan, o'zingdirsan keragim. Bo'yaringdan o'rgilay, o, senga o'zim o'lay, O'zbekiston jannat, men jannatga loyiq bo'lay.

KO'NGIL, EY KO'NGIL

Menda qol, yo mendan qolgini, ey ko'ngil, ko'ngil shu issiqqa, sovuqqa ko'n yo, Otamning uyiday qachondir butkul hayotimdan chiqib ketgay bu dunyo.

Kelajak burnimning ostida – ma'lum, savob-u gunohim dargumon hali, ketyapman – ko'zlarim ortda, ahvolim – xazinadan yiroq g'aznabon holi.

Otali boyman-u dilda ranj, malol, sen go'zal yorda, xoh yodda qol, ko'nglim, mendan qolar bo'lsang, mayli, yerda qol, kindik qonim tomgan yerda qol, ko'nglim.



EHTIROM

Ne'matulloh Ibrohim davrimizning nodir shaxslaridan biridir. U kishi katta olim, arab lug'ati bilimdoni, jamoat arbobi, ulkan tashkilotchi.

Domlani Toshkent davlat universitetining Sharqshunoslik fakultetida dekan lavozimida xizmat qilgan chog'laridan bilaman. 1991-yilda mazkur fakultet bazasida Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tashkil etildi. Qahramonimiz bu institutning asoschisi va bosh tashkilotchisi edi. O'zi 1991–2005-yillarda rektor vazifasida xizmat qildi.

Fakultet ekanida ish oson kechgan, har jihatdan ToshDUning tasarrufida bo'lgan. Lekin butun boshli oliy ta'lim dargohini yo'qdan oyoqqa turg'izish oson ish emas. Ne'matulloh Ibrohim domla tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etib, mazkur institutni faqat O'zbekistonda emas, balki Markaziy Osiyodagi eng obro'li ilm dargohlaridan biriga aylantirdi.



OQIBATNI YOD ETIB...

Keyinchalik domla lavozimdan olinib, Sharqshunoslik instituti islomshunoslik kafedrasini mudiri vazifasiga qo'yildi. Lekin qalami, ilmi va iste'dodi bor kishi hech qachon tushkunlik va g'amginlikka berilmaydi. Mas'ul vazifalardan yengillashgan alloma ilmiy-ma'rifiy faoliyatga shu ng'ib ketdi.

Yosh va bo'lajak olimlarga o'rnak o'laroq Ne'matulloh Ibrohimning ilmiy-ma'rifiy, ijodiy faoliyatiga to'xtalib o'tamiz.

Bir mahallar Toshkentda "Qomus" nashriyoti bor edi, "Qomuslar bosh tahririyati" deyilardi. 1991–1996-yillarda nashriyot rahbari Nurislom To'xliyev tashabbusi bilan hazrati Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" ("Eng ishonchli hadislar to'plami") kitobi o'zbek tiliga tarjima qilinib, to'rt jild holdida chop etildi. Birinchi jildni arab tilidan Zokirjon Ismoil tarjima qilgan. 1991-yilda chop etilgan. Kitobning ikkinchi betida "Professor Ne'matulloh Ibrohim va shoir Mirzo Kenjabek tahriri ostida" degan yozuv mavjud. Kamina nomim muhtaram olimimiz nomi bilan yonmay turganidan iftixor tuyganman. Abdulla Oripov "Hikmat sadolari" turkum she'rlarini mana shu kitobdagi hadislar asosida yozgan. Kitobni shoirga Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlari sov'g'a qilgan. Ustoz bu she'rlari uchun O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan mukofotlanib, haj ziyoratiga yuborilgan edi. Demochimanki, Imom Buxoriydek zotning kitobi nashr etilishida Ne'matulloh Ibrohim domlaning nomi va mehnati muhim ahamiyat kasb etgan.

Domla shogirdlari bilan birga mashhur sayyoh Ibn Battutaning "Sayohatnoma", ya'ni "Tuhfat an-nuzzor fi g'aroib al-amsor va ajoib al-asfor" ("G'aroyib shaharlar va ajoyib safarlar haqida nazar sohiblariga tuhfa") asarini arab tilidan tarjima qilib, nashr ettirdi.

2001-yilda oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun 2 jildli "Arab tili grammatikasi darsligi"ni chop ettirdi. Ushbu darslik O'zbekistonning ko'plab oliy o'quv dargohlarida arab tilini o'rgatuvchi asosiy qo'llanma vazifasini o'tab kelmoqda.

2017–2022-yillar davomida arabcha-o'zbekcha to'rt jildlik qomusni tuzib, misli ko'rilmagan ulug' ishni amalga oshirdi. Bu benazir asar "Al-Qomus: arabcha-o'zbekcha ensiklopedik lug'at" deb ataladi. Unda 100 mingdan ortiq so'z va iboralar jamlangan. Ushbu lug'atning chop etilishi o'zbek ilm-fani, xususan, O'zbekiston sharqshunosligining ulkan yutug'idir.

2010-yilda Abdulmalik ibn Hishomning "As-Siyya an-nabaviyya" asarini o'zbek tiliga to'liq tarjima qilib, nashr ettirdi.

Domla ilmiy-ijodiy faoliyatini davomida manbashunoslik sohasidagi yangi yo'nalishlardan biri bo'lgan Sharq badiiy tafakkuri va yuksak ma'rifatli ziyolilar madaniyatining yaxlitligi haqidagi qomusiy asoslarni taqdim etdi.

Qizg'in ilmiy-ma'rifiy ishlar bilan mashg'ul bo'lib turganida domlaning mavqeyi yana tiklandi.

2018-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan Xalqaro Islom akademiyasi tashkil etilib, Ne'matulloh Ibrohim rektor qilib tayinlandi. Bu rahbar uzukka ko'z qo'ygandek joyiga tushgan edi. Domla

bor ilmi va hayotiy tajribasidan foydalanib, yangi davr ruhiga mos ravishda Akademiyani oyoqqa turg'izdi. Eng munosib ilmiy kadrlarni tanlab, Xalqaro Islom akademiyasini quvvatlantirdi. Ilmiy ish qiluvchilar uchun katta imkoniyatlar eshigi ochildi. Ko'plab yosh olimlar falsafa doktori va fan doktori ilmiy darajalarini olishga erishdi. Toshkent ilmiy-ma'rifiy muhitida yangi imkoniyatlar yuz ko'rsata boshladi. Akademiyasi ishlari bir maromga tushib olgach, domla yana ilmiy-ijodiy faoliyatga qaytdi.

Bir xil rahbarlar ishdan ketsa, obro'si, izzati ham ketadi. Ne'matulloh domlada hech qachon bunday bo'lgan emas. Chunki domlanning butun izzati – ilmda.

Domla adabiyotning chin ixlosmandi va bilimdoni hamdir. Suhbatlarda, davralarda ko'pincha Erkin Vohidov she'rlaridan misollar keltirganini kuzatganman. Bir anjumanda "atom" so'zini sharhlab, ustozning ushbu baytlarini o'qigani esimda:

**Zarrani ijod etib,
Dahshat-balo bunyod etib,
Oqibatni yod etib,
Hayron o'zing, hayron o'zing.**

Suhbatda bu misradagi "zarra"dan murod atom ekanini domla chiroyli sharhlagan edilar.

Olimning suhbatli olimonadir. Olimning har bir so'zi olimga xos, hikmatga moyil so'zdir.


Ne'matulloh Ibrohim jahongashta olim. Domla ilmiy maqsad va xizmat safari bilan AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Fransiya, Turkiya, Rossiya, Misr, Jazoir, Suriya, Kuva, Bahrayn, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari, Ummon, Saudiya Arabistoni va boshqa manzillarda bo'ldi.

O'tgan vaqt mobaynida halol mehnati bilan filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi kabi daraja va unvonlarga erishdi. Imom Buxoriy nomidagi xalqaro mukofot sohibi bo'ldi. Jahon hamjamiyati ham u kishini munosib e'tirof etgan. Ne'matulloh Ibrohim Qohira Arab tili akademiyasi a'zosi, Janubiy Koreyaning Sen Kyun Kvan universiteti faxriy doktori, Yaponiyaning Fukusima prefekturasining O'zbekistondagi faxriy elchisi, "O'zbekiston–Misr" do'stlik jamiyati raisi, O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyati Kengashi raisi, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari rektorlari kengashi raisi, O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi maslahatchisi kabi mavqelarga ega bo'lgan. Yana u kishi ikki marta O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati etib saylangan.

Ne'matulloh Ibrohim domla, mening nazarimda, o'z haqiqatlarida sobit turgan nodir shaxslardandir!

Domlaga doimiy sihat-salomatlik, uzoq, barakotli umr tilab qolaman.

**Mirzo KENJABEK,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
yoshlar murabbiysi**



Fan chegaralarni bilmaydi, chunki bilim butun insoniyatga tegishli va u dunyoni yorituvchi mash'aldir.

Lui PASTER

KO'NGIL DAFTARIDAGI BITIKLAR

Boshlanishi 1-sahifada.

Alloma Alixonto'ra Sog'uniy bu fikrni yanada rivojlantiradi: "O'zlarini din homiylari deb e'lon qilgan hukmdorlar xalqni ma'rifat nuridan mahrum, zamonaviy fanniy ilmlardan butunlay yiroq tutdilar. Shuning uchun xalqda uyg'onish, fikriy ochilish bo'lmadi. Davlatning inqirozi, millatning ongsizligiga shu johillar sababchidir".

Donishmandlar "Ilm ko'r qalb ko'zini ochuvchi, qorong'i zulmatga nur bag'ishlovchidir, zaif badanlarga kuch-quvvatdir, ilm bilan banda yaxshi kishilar darajasiga ko'tariladi, oliy martabalariga yetishadi", deb allaqachon aytib qo'yishgan. Demak, biz bugun – Uchinchi Renessans ostonasida texnologik o'sishlar eshigini eng ochib, yoshlarni uning beqiyos imkoniyatlaridan bahramand etishimiz kerak.

AFANDINING BUALODAN FARQI

Fransuz qiroli Lyudovik XIV she'r mashq qilib turar, yozganlariga baho berishni shoir va munaqqid Bualodan so'rar ekan. "Hazrati oliylari, – debdi bir kuni Bualo qirolning navbatdagi she'rlarini o'qib. – Sizning qo'lingizdan kelmaydigan ish yo'q. Mana, bemaza she'r qanday bo'lishini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'lgan ekansiz, bu ishni ham qoyillatibsiz, mahoratingizga tahsin aytmalikning iloji yo'q..."

Bu gap o'zimizda ham bor. Afandi podshohning bemaza she'rlarini o'qib, "Olampanoh, siz podshohlikda tengi yo'qsiz, ammo she'rlaringiz juda rasvo", degan ekan. Podsho Afandini betgachoparlighi uchun og'ilga qamab qo'yibdi. Oradan bir hafta o'tibdi. Podshoh besh-oltita yangi she'r yozibdi, o'qib ko'rsa, avvalgilaridan ancha yaxshi chiqqanday emish. Afandi endi maqtasa kerak, deya uni huzuriga chorlabdi. Afandi she'rlarni o'qibdi-da, bir so'z demay, o'rindan turib, og'il tomon jo'nab qopti...

Bualoning Afandidan yoki Afandining Bualodan farqi nimada? Yengilloq o'ylagan kishi har ikki javobni bir ma'noda tushunadi. Ammo ularda jiddiy farq bor: Bualo tadbirkorlik qilmoqda, Afandi bo'lsa, og'ilda yana uzoq qolib ketishi mumkinligiga qaramay, she'riyat deb atalmish buyuk san'atga xiyonat qilayotgani yo'q.

MUSHT

Boks olamining so'hmas yulduzlaridan biri, afsonaviy Mayk Taysonning bir suhbatidan shu qadar ta'sirlandimki... Faqat ta'sirlanish emas, inson o'z hayotida dush keladigan turfa chorraha, turli holatlarni o'ylab, xayolim qochdi.

Taysonning jurnalist bilan suhbatini binoyidek ketayotgan edi, ammo... kutilmaganda "temir mush" o'rindan sapchidi, suhbatdoshiga quturgan fildek tashlanishiga sal qoldi. Bunga jurnalistning: "O'xirgi jangingiz uchun 20 million dollar mablag' oldingiz, bu ko'p emasmi?" degan savoli sabab bo'ldi.



Tayson og'ir o'tgan bolaligi, och-yupun kunlari, tinimsiz mushtlashuv, omon qolish uchun o'tkazgan tengsiz janglari, yutqiziqlar, ayovsiz kaltaklar, yuzidan ter kabi oqqan qon, zirqiragan suyaklari, adolatsizlik, irqiy kamsitishlar haqida gapirdi.

"Sen bilib qo'yki, hayotning zalvorli mushti mening, sizlar "temir" deb ataydigan mushtimdan yuz, ming barobar ayovsiz, – dedi u suhbatdoshiga. – Xohlagan paytida ezib, yanchib tashlaydi. O'lasanmi, qolasanmi, kissangda puling qolganmi-yo'qmi, ota-onangning ahvoli qanday – bu bilan ishi yo'q. Nima ham qilardim, yashashim kerak. Hamma ko'chaga kirib chiqdim, qamaldim, gijohvandlik balosidan qutulishga harakat qildim. Ammo menga... mushtimdan boshqa hech kim, hech narsa yordamga kelmadi. Sen qanchadan qancha boksyorlar mashq paytida yuragiga urilgan zarbadan o'sha zahoti jon taslim qilgani, uyida bolalari, kasal onasi zor qaqshab qolgani, ularning oh-faryodini bilasanmi? Bilmaysan, shuning uchun ham shunday bema'ni savol berasan. Yana shuni bilib qo'yki, bizning jang oldidan tuziladigan

shartnomalarimizda, bordi-yu jang payti o'lim holati yuz bersa, buning uchun kimdir javob berishi kerakligi to'g'risida biror bir yozuv bo'lmaydi. Bokschi ko'p holatlarda raqibi bilan emas, o'lim bilan jang qiladi. Mana, mening senga javobim!"

IBRAT

Ibrat olishga molik ishlar hamma joyda bor.

Yaponiyaga borgan pedagog olimlar mahalliy ma'murlardan mamlakatda o'qituvchilarning bayrami qachon nishonlanishini so'rashibdi. Mezbonlar avvaliga hayron bo'lishibdi, so'ng g'urur bilan: "Biz o'qituvchi murabbiylarni yil davomida sharaflaymiz, ularni har kuni e'zozlaymiz", deyishibdi.



2013-yili Yaponiya temir yo'l boshqarmasi yo'lovchi bo'lmagani uchun bir bekatni yopishga qaror qiladi. Ammo bir qizaloq ayni shu bekat orqali maktabga qatnayotgani ma'lum bo'ladi. Mahalliy hokimiyat qizchaniy uzluksiz ta'lim olishi uchun bekat faoliyatini vaqtincha to'xtatmaslikka qaror qiladi. Poyezd uch yil davomida Xokkaydo orolining Kyu-Shirataki bekatiga kuniga ikki marta – shu qizaloq uchun to'xtab o'tadi. Poyezdning to'xtash vaqti qizning maktabga borish va qaytish vaqtiga qarab belgilanadi. Qizcha 2016-yili maktabni bitiradi va bekat yopiladi.

Finlyandiya o'qituvchilar o'quvchilarning ota-onalari bilan tanishishlari, ularni maktabga, bizardagidek, ota-onalar majlisiga taklif etishlari mumkin emas. Hamma muammo maktabning o'zida hal qilinadi. A'lochi va ulgurmovchi o'quvchilar ajratilmaydi. Muzey va boshqa joylarga uyushtiriladigan sayohatlar maktab ma'muriyati hisobidan bo'ladi.

Ertalab soat 8:00 da maktab eshigi yopiladi va mashg'ulotlar tugagunicha hech kim bu dargohni bezovta qilmaydi.

SAVOL

Kusto ismli olim insoniyat nigohini yer ustidan ummonlar tubiga qaratib, bu g'aroyib olam sirlari-yu, muammolarini oshkor qildi. Kusto jamoasi tasmaga muhrlagan filmlardan biri baliqlar hayotiga bag'ishlangan. Shu filmni necha bor ko'rsam-da, hayratim aslo kamamaydi. Uvildiriqdan paydo bo'lgan murg'ak chavoqchalar voyaga yetgach, tug'ilgan joylaridan necha yuz ming kilometr masofaga uzoqlashib ketadilar. Boshqa ummonlarga cha yetib boradi. Ammo hayotlari so'ngida qanchadan qancha tabiiy, sun'iy to'siqlardan o'tib tug'ilgan joylariga qaytadilar. Shu yerga uvildiriq qo'yib, so'ng bo'lajak nasllari uchun yemishga aylanishadi.

Televideniyeda Afrika va Lotin Amerikasi changalzorlarida yashaydigan turfa xil qushlar hayotiga doir ingliz olimlari suratga tushirgan filmlarni namoyish qilishdi. Yana hayrat, tushunib bo'lmaydigan sir-sinoat.

Bittasi ming urinib in quradi, boshqasi poylab turib, uni egallab oladi. Bittasi qurgan iniga tuxum qo'yadi, boshqasi boshini qotirib o'tirmay, tuxumini shu tayyor



inga joylashtiradi. Bittasi in qurish uchun uzoq-uzoqlarga uchib, horib-tolib, og'zida xas-xashak olib keladi. Boshqasi esa yo'lda unga hujum qilib, og'zidagi cho'pni olib qochadi. Bittasi suv yuzasiga chiqib qolgan baliqlarni tumshug'iga olib, havoga ko'tarilishi bilan qaroqchi qushlarga dush keladi va o'ljasidan mahrum bo'ladi. Bittasi inida paydo bo'lib qolgan begona tuxumni o'ziniki qatori ochib chiqaradi. Begona tuxumdan chiqqan qush bolasi esa ko'p o'tmay uning bolalarini pastga qulatib yuboradi.

Meni hayratga solgani – qushlar orasida baxil, xasis, birovning uyini buzmasa, bolalariga ozor bermasa ko'ngli o'rniiga tushmaydiganlari ham bo'lar ekan... O'ylanib qolaman: kim kimdan o'rgandi ekan – odamzod qushlardanmi yo qushlar bizlardanmi?..

OVCHI

"Yosh Verterning iztiroblari" kitobini yana bir bor o'qib chiqdim. Yon daftarimda quyidagi yozuvlar paydo bo'ldi:

"Kaltafahmlik dunyoga makr va adovatdan ko'ra ko'proq nizo urug'ini sochadi".

"Dunyoni befarosat odamlar buzgan-chalik boshqa hech kim buza olmaydi".

"Kimdir ketadigan vaqt bo'ldi", deb aytishini kutib o'tirish kerak emas".

"Siz, ehtimol, bu yugur-yugurlaringiz, kuyib-pishishingiz bilan kelajakda boy-badavlat bo'lib ketarsiz, uyingizda xizmatkorlar ishlashar, atrofingiz gavjum bo'lar. Ammo shunday bo'lganida ham, butun vujudingizga singib ketgan pastkashligingizdan qutula olmaydiz. Bu "fazilat" sizni u dunyoda ham tark etmasa kerak. Meni kechiring..."

"Do'stim, seni hozircha shunday atashga majburman, mushfiq onang seni tug'ganida, bolam muttahamlarning muttahami bo'ladi, firibgarlarga dars beradi, olchoqlikni boshiga toj qilib oladi, xiyonat ko'chasiga tanda qo'yadi, deb aslo o'ylamagan bo'lsa kerak. Onangga rahmat degim keladi. Agar u seni dunyoga keltirmaganida, men, bilasanmi, o, buni aytish men uchun juda og'ir... ko'p narsalardan bexabar, sodda-so'taklimichma yashab o'tgan bo'larmidim..."

"Uyida quroli bor odam, agar u, masalan, tog' yonbag'irida yoki tubsiz jarlik yoqasida, o'rmon ichkarisida yashasa, har ehtimolga qarshi (yovvoyi jonzotlar qo'qqisidan hujum qilib qolishlari mumkin-da) milg'ini o'qlab qo'yadi. Mening esa na milg'ini va na uni o'qlaydigan o'qim bor. Ammo... tez-tez eng yaqin do'stlarimning qalbni o'qdan ko'ra og'ir jarohatlaydigan hujumlarga dush kelib turaman. Ularga munosib javob qaytarishim mumkin, qarab turadiganlardan emasman, tilim chuchuk emas. Nishonni bexato uradigan so'z va iboralar, kesatliqlar yetarli. Faqat... ovchi emasligim pand beradi-da".

"KUSHAY BUDI..."

Tabiat qo'riqchisi nomini olgan ekolog yozuvchi Dadaxon Nuriy bilan do'st-qadrdon edik. Tez-tez suhbatlashib, vohacha aytganda, hangomalashib turardik. U kishining latif davralardagi hikoyalari favqulodda ajabtovurligi, kutilmagan "burilishlari", latifanoma yakunlari bilan ajralib turardi. Ibrohim G'afurov: "Dadaxon gapni rosa ko'pirtiradi-da, ammo ishonitiradi", derdilar. Ishonib tinglagan hikoyalarmizdan bittasi quyidagicha.

Dadaxon akaning asli vodiylilik, ammo ko'plar qatori Toshkentda yashab qolgan bir do'sti bor ekan. Uning Temur ismli o'g'ilchasi bolalar bog'chasining rus guruhida tarbiyalanibdi, maktabda ham shu tilda o'qiy boshlabdi. O'qishga qiziqishi, fe'l-atvori, kirishimlili joyida ekan-u, biroq o'zbek tilida chala-chulpa gapirishi otanonani tashvishga solibdi. Ular bu to'g'rida Dadaxon akaga aytishgan ekan, yozuvchi akamiz: "Yozgi ta'tilda bizing bolalar doimo Namanganga ketishadi, bir-ikki oy qishloqda turib, meva-cheva, sut-qatiqqa to'yib, yuzlari oftobda pishib qaytishadi. Temurbekni ularga qo'shib jo'natsak, yaxshi bo'ladi: ham pishadi, ham o'zbekchani o'rganib qaytadi. Uyimizda o'risha bitta so'z ham bilmaydigan kelinimiz bor, uning bolalari bilan o'ynaydi", debdi.

Bu taklif Temurbekning ota-onasiga ma'qul kelib, yosh "o'risvoy"ni Namanganga olib borib, qarindoshlarning sho'x-shodon, quvdi-qochdi bolalariga qo'shib kelishibdi. O'risha bilmaydigan kelinga: "Mehmon bolaga o'zingiz yaxshilab tarbiya bering, odatlarimizni o'rgating, tushunsa-tushunmasa o'zbekchani qulog'iga quya-vering", deb tayinlashibdi.

Oradan uch-to'rt hafta o'tgach, bolalardan xabar olgani mashinada Dadaxon akaning jiyanlari turadigan hovliga borishibdi. Darvoza ochiq ekan, ichkariga kirishsa, toshkentlik mehmon bola tandirning ustiga minib olib, otchopti qilayotgan ekan. Shu payt ichkaridan o'risha bilmaydigan kelinning ovozi eshitilibdi:

"Temurchik, idi sudi, kushay budi..." Kulyapsiz-a? Nahotki, kulgili voqea bo'lsa bu...

**Ahmadjon MELIBOYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist**



TARIXDAN SADO

Inson paydo bo'libdiki, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va qabohat unga hamisha hamrohlik qilib keladi. Aslida, hayot atalmish ne'matning o'zi ushbu ikki kuch orasidagi kurashdan iborat. Ertak qahramonlari boshdan kechiradigan voqealar ham aynan shu asosga qurilgan.

Ta'lim-tarbiya va unga hamohang iqtisod mo'tadil zamonlarda yaxshilik g'olib kelsa, bid'at ufurgan, tarbiya izdan chiqqan tizim va saltanatlarida yomonlik davri davronini suradi.

Qozilik jamiyatda tarozi vazifasini bajarib, yomonlik yo'lga kirgan bandalarni undan qaytarish va jazolash vositasi sifatida paydo bo'lgan. Tabiiyki, hech bir banda o'z aybini osonlikcha bo'yniga olmaydi, qorani oq, oqni qora, deb oyoq tirab turadiganlar hamma davrlarda topiladi.

Shu sababdan, taqdiriga qozilik qilish yozilgan bandalar hamisha nadomat to'foni ostida qolganlar va qoladilar. Eslang, atigi bir asr ilgari muomalada bo'lgan kasb bilan bog'liq atamaga kim, qachondir, nima maqsadni ko'zlab tilga olishga uyaladigan "Onangni qozi zo'rflasa..." matalini to'qigan? Bilmaymiz. Bilganimiz shuki, buyuk jadid adibimiz Abdulla Qodiriy "...mavzuni tariximizning kir va qora kunlaridan tanladim", degan ishtiboh bilan boshlagan bir-biridan go'zal egizak romanlaridagi salbiy qahramonlari orasida amaldorlar, din vakillari, saroy muolozimlari, savdogar ahli ozmi-ko'pmi uchragani holda salbiy qozi obrazi negadir yo'q. "Mushtum" jurnalida chop qilingan ko'pdan ko'p tanqidiy maqolalari, feletonlarida ham qozilar bir chetda qolgandek.

Nega shunday? O'sha "kir va qora zamonlarda" faoliyat yuritgan qozilar shu qadar adolatli edilmami?

Arxiv hujjatlariga murojaat qilamiz: "...1275-yil jumadil-avval oyining 11, 12sida Iskandarboy machitiga qarashlik Tangiberdi o'g'li Pahlavon Niyoziy – bug'doyrang, qo'y ko'z, egar qosh, soqoli oq, o'rta bo'yli – qonunga binoan quyidagilarga rozi bo'ldi:

"Menki, Pahlavon Niyoziy Iskandarboy o'g'li Abdulla mutavalliga butun huquq va imtiyozlar bilan o'zining ikki tanob yerimni og'irligi bir misqol bo'lgan besh qizil tilloga soddim. Yerning qunchiqar tomoni ariq, kun yurish tomoni Boltaniyoziy shayx yeri, tunyoq tomoni Muhammadniyoziy yeri, kun botish tomoni katta yo'l. Mazkur Abdulla bu yerni ijaraga qo'yib, yiliga bir tildolan olishni shart qildi. Bu vasiqaga Mulla Muhammad Yusuf Otajon xo'ja va boshqalarning guvohligi bilan tuzildi".

1858-yilda tuzilgan ushbu vasiqaga qozi muhri, guvohlar imzolari (ayrimlari barmoq bosishgan) qo'yilgan.


Xiva xonligi arxivida bu kabi yuzlab vasiqalar saqlanmoqda.

Bir varaqlik huquqiy hujjat-vasiqadagi yerini sotayotgan odamning yuz qiyofasi tasviriga qoyil qolmay ilojimiz yo'q. Hali fotografiya atalmish nimarsa paydo bo'lmagan zamonlarda qozilarga murojaat qiluvchilar, turlik mojarolariga yechim izlaganlarning afti-angorini aslidagidek aks ettirish oson bo'lmagan. Buning uchun qozida rassom nigohi bo'lishi shart!

Demakki, qozilar nafaqat diniy, dunyoviy bilimi, balki inson ichki va tashqi dunyosini

QOZI – TAROZI

Raiyat ulardan rozi edimi?



anglovchi salohiyatga ega kishilardan tayinlanishi talab qilingan. Qozi bir vaqtning o'zida islomiy huquq hamda dunyoviy bilimlarni to'la egallagan bo'lishi shart qilinganki, bu uning faoliyatida xatogarchilik, soxtakorlikka yo'l qo'ymasligiga kafolat hisoblangan. Madrasa sabog'ini tugatgan toliblar xonning shaxsan o'zi, vazirlari, ulamolar ishtirokida imtihondan o'tishgan va ular orasidan Qur'oni Karimni, sahih hadislarini yod bilganlariga oxund darajasi berilgan. Qozilar aynan oxundlar orasidan tanlangan.

Mazhabimiz boshlovchisi Imomi A'zam nega qozi bo'lishga rozilik bermadi va bu rad javobi uchun oltinish darra bilan jazolandi? Imomi A'zam qozilik nafaqat martaba, balki mas'uliyat ekani, biror mojaro yoki jinoyat ishini ko'rishda beixtiyor xatolikka yo'l qo'ysa, oxiratda javobi og'ir bo'lishini anglagan.

Qozilar jinoiy ishlarni ko'rganlarida o'lim hukmidan boshqa har qanday jazo berish vakolatiga ega bo'lishgan. Qozi tomonidan aniqlangan og'ir jinoyati uchun o'lim jazosiga loyiq deb topilgan shaxsni xon yoki amir shaxsan sud qilib, so'ng oliy jazo bergan. Bu tartib qozilarning huquqlarini bir qadar cheklagandek taassurot uyg'otadi. Aslida esa bu tartib sud tizimining g'oyatda mukammal va adolatli bo'lganidan darak beradi. Inson taqdirini bir shaxs – qozi mustaqil hal qila olmaydi. Bu jarayonda yanada yuqoriroq mahkama – saroy oxirgi so'zini aytishi kerak (Hozirda amalda bo'lgan qonunchilikda ham ayni shu qadim sud tizimi an'anasini ko'ramiz. Birinchi sud bosqichi chiqargan har qanday hukm ustidan ayblanuvchi yuqori instantsiyaga shikoyat qilish huquqiga ega. Apellatsiya, kassatsiya bosqichlaridan o'tgan hukm qonuniy kuchga kiradi).

Ammo sovet davrida chop qilingan ayrim kitoblarda go'yo "Bag'dodning bosh qozisi vafot etgach, o'rninga qozi tayinlanishi uchun e'lon berilgani, bunda bir kun ishlagach, ertasiga boshi tanasidan judo qilinishi shartligi belgilangan bo'lishiga qaramasdan qozi bo'lish uchun qator navbatda turishgan"

qabilidagi rivoyat qaydan paydo bo'lgan?

Yoki sovet zamonlarida yaratilgan ayrim kinolarda ham qozilarning salbiy obrazlariga ko'plab duch kelamiz. Yana deng, bu obrazlar bachkana tarzda tasvirlanadi.

...Chor Rusiyasi 1865-yilda tashkil qilingan general-gubernatorlikka Turkistonni boshqarish to'g'risida vaqtinchalik nizom ishlab chiqqan. Ikki yildan so'ng bu nizom qayta to'ldirilgan. Unga ko'ra "ma'muriy va harbiy hokimiyat bir-biridan ajratilmasdan bir kishining qo'lida bo'lishi shart" deya belgilangan. Turkiston general-gubernatorligiga go'yo mustaqil subekt darajasida huquqlar berilgan: qo'shni davlatlar bilan aloqani mustaqil hal qilish, aholiga solinadigan soliqlar miqdorini belgilash, chor Rusiyasi fuqaroligiga qabul qilish, mahalliy aholi ustidan chiqariladigan o'lim hukmlarini tasdiqlash" va boshqa huquqlar.

Ushbu nizomda bir-biriga qarama-qarshi holatlarga ham duch kelamiz, ya'ni Turkiston general-gubernatorligi o'z qo'l ostida bo'lgan hududlar hamda Buxoro amirligi va Xiva xonligida yashayotgan fuqarolarga Rossiya fuqaroligini berardi. Bundan ko'rinadiki, bir qarashda mustamlaka bo'lgan Turkiston ahli bor bo'yicha chorizm davlati fuqarolari emas. Unda ular kimlar? Vaqtincha bosib olinganlarmi? Unday desak, ularni o'limga hukm qilish uchun general-gubernatorlikka nega huquq berilgan? O'z fuqarosi bo'lmagan kishilarga o'lim jazosi berish o'sha vaqtda mavjud xalqaro qonunlarga to'g'ri kelarmidi? Yo'q, albatta!

1873-yilda (Xiva xonligi ham to'la istilo qilingach) Kaufman taklif qilgan yangi loyihada "ma'muriy huquqlarni kuchaytirish" bandilari paydo bo'ldi.

1886-yilgi nizomda sud tuzilishi to'g'risida asosiy qoidalar belgilandi va bu bilan qozi-larning huquqlari bir qadar cheklandi.

Chor Rusiyasi Turkistonni bosib olgach, bir qator ma'muriy o'zgarishlarni amalga oshiradi. Ammo yuz yillardan oziqlangan shariatga sud tizimi – qozilikni yo'q qila

olmaydi. Faqat uning nomini "xalq sudi" deb o'zgartiradi. Bu o'sha qadimgi sud bo'lib, o'troq aholi orasida qozilik, ko'chmanchi qavmlarda esa biylar ko'rinishida saqlanib qoladi. Qozilar va biylar volost vakillari o'tkazgan qurultoylarda uch yil muddatga saylanishgan va nomzodlarni gubernator shaxsan tasdiqlagan. Biylar odatga, qozilar shariatga asoslanib hukm chiqarishlari tartibi saqlanib qolavergan.

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, 1899-yil Toshkentning Sebzor dahasi qoziligiga Muhiddinxo'ja ismli inson ko'pchilik ovoz bilan saylangan. Vakillardan 62 nafari uning nomzodini qo'llagan, faqat 12 vakil qarshi ovoz bergan. Nizomga ko'ra, vakillar saylagan qozini viloyat general-gubernatori tasdiqlashi kerak edi, ammo Muhiddinxo'ja nomzodini general-gubernator tasdiqlamaydi. Sababi, Muhiddinxo'ja erkin fikrli kishi sifatida "qora ro'yxat"ga tushib ulgurandi. Jadidlar otasi Ismoil G'asprali Toshkentga kelganida uni uyiga taklif qilgan, izzat-hurmat bilan yelkasiga sharqona to'n yopgandi...

Bu bir-ikki misol orqali o'sha zamonlarda barcha qozilar adolat bilan ish yuritgan degan da'vodon yiroqmiz. Ularning orasida nafsiga erk bergan, tanish-bilishchilik qilgan, rishva evaziga tarozi posangisini nohaq tomonga bosganlari ham bo'lgan, albatta.

1952-yil chop qilingan "O'zbekiston SSR tarixi" ko'p tomli kitobning ikkinchi bobida Turkistondagi sud tizimi haqida faqat salbiy fikrlar berilgan. O'qiyimiz: "...Qozi va biylikka, odatda mahalliy sudxo'r biylar turli hiyla va nayranglar ishlatish va poralar berish yo'li bilan saylanar edilar. Odatga ko'ra, da'vogar va javobgar to'laydigan haq hisobiga qozi va biylar talay daromad olar edilar. Mirzalar (qozi yordamchilari) ko'rilgan har bir ish yuzasidan 10-12 tiyindan, yasovullar javobgardan 25 tiyindan olganlar. Yasovullar ko'pincha javobgarlardan pora olganlar va "javobgar topilmadi", deb bahona ko'rsatganlar.

Qozi va biylar "rivoyatlar" asosida hukm chiqarar edilar; bunday "rivoyatlar"ni da'vogar va javobgar uchun muftiyar yoki vakillar tayyorlab berar edilar. Rivoyatlarni ko'rib chiqishda a'lamlar qatnashardi.

Shunday qilib, Turkistonning xalq sudlari deb atalgan sudlari – qozi va biylar sotqinlik va poraxo'rlik bilan shug'ullandilar, ekspluatatorlarning manfaatlarini himoya qildilar hamda qoloq feodallik munosabatlarini saqlab keldilar".

Ushbu tarixyozarmanlar aytmiş iddaolari isboti uchun birorta fakt yoki holatni ko'rsatishmagan – quruq tuhmatoona fikrlari bilan cheklanishgan. Nahotki, ular qozilar hukm chiqarishda foydalanadigan Qur'oni Karim oyatlari, sahih hadislar, islom huquqi asoslari belgilab berilgan "Hidoya" asaridan bexabar bo'lishsa?

Qozilar yordamchilari oladigan 10-12 tiyinni pesh qilar ekanlar, hech bo'lmaganda chor Rusiyasi tayinlagan "xalq sudlari har oyda falon rubl maosh olishardi", deb qistirib ketishganida davlat to'laydigan maoshga qanoat hosil qilmay yana pora olishganiga

ishonishimiz mumkin edi. Aslida, qozilarga davlat hech qanday maosh to'lamagan, ular o'zlari ko'rgan ish uchun belgilangan ish haqi – har bir ishdan 10-12 tiyin olish orqali to'zgorlarini yuritishgan. Va yana xalqaro huquq me'yorlariga taqqoslasak, mirzalar oladigan tiyinlar bugungi kunda amalda bo'lgan davlat boji to'lovi hisoblanadi.

Ushbu asarni yozgan tarixchilar qozilar ustidan kulish uchun dala chetida, yerga ko'rpacha to'shagancha ish ko'rayotgan qozilar suratini ilova qilib, unga "Toshkent uyezdida qozilar sudi" deb nom taqashgan.

Yuz yillarki, amalda bo'lgan "qozixona" qayga ketdi? Ma'lumki, har bir qozining fuqarolar arzlarni tinglaydigan maxsus qurilgan qozixonasi bo'lgan.

Tuhmat ham evi bilan-da!

Sovetlar hokimiyatni qo'lga olgach, qozilik tizimini tugatib, yevropacha andozadagi sud tizimini yaratishga kirishadilar. "Ishchi-dehqon hokimiyati" atalgan tuzumda ilk sudyalik kursisiga huquq ilmidan bexabar, "sovet tuzumi uchun faol kurashgan" ishchi-dehqonlar o'tirishgan. Va oqibati uzoq kuttirmagan.

Bog'ot tumani misolida aytadigan bo'lsak, 1930-yilda yangi tuzilgan tumanga Shukur ismli ayol sudyalik lavozimiga qo'yiladi. Bor-yo'g'i to'rtinchi sinfni bir amallab tugatgan bu ayol ikki yildan so'ng "ishda yo'l qo'ygan xatolari uchun" vazifasidan bo'shatiladi va qatag'ondan qo'rqib, daryo ortiga qochib ketadi. Shukur so't laqabli momo o'tgan asrning to'qsoninchi yillarida vafot etdi. Momodan o'zi ishlagan davrlar haqida so'raganimda "Bizlarga tepadan ko'rsatma yuborilardi: necha oti, sigiri bor oilalarni "quloq" qilish, bir vaqtlari bosmachilar safida qatnashganlarni necha yilga kesish kerakligi yozib qo'yilardi. Shu ko'rsatmadan chiqqa olmasdik", degandani.

Shukur momodan so'ng tuman sudyasi vazifasiga bizning qishloqlik faol kolxozchi Qurbonniyoziyov "saylangan", aslida tayinlangan.

Qurbonniyoziyov qanday sudya bo'lganligini u kishi haqida hali-hamon odamlar xotirasida yashab kelayotgan latifanamo voqealar ko'rsatadi. Mana o'sha voqealardan biri:

Eshagini o'g'irlatgan bir banda melisalarga murojaat qiladi. Melisa xodimlari eshak o'g'risini topib, tergov qilib ishni sudga oshiradi. Ammo, eshak topilmaydi – o'g'ri uni sotib yuborgan bo'ladi.

Qurbonniyoziyov ochiq o'tgan sud majlisida o'g'rini besh yil qamoq tizosiga hukm qiladi va uni sud zalidan olib chiqishni buyuradi. Eshagini o'g'irlatgan soddahon sudyaga qarata: "Men eshagimni o'g'irlatib... endi quruq qolavaramanni?" deb iltijo bilan murojaat qilganida Qurbonniyoziyov "Bor, senga ham uch yil!" deb uni ham qamatib yuborgan.

...Bizning Qulon Qorabog' qishlog'imizda "Qozi ovul" atalgan elat bor. Qariyalar atama kelib chiqishiga xonlik sababligini aytishadi. E'tiborlisi, sovet zamonida qishlog'imizdan ilk oliy ma'lumot olgan inson aynan shu elatdan – qozilar avlodidan edi. Ha, qozilar orasida ilmtalab, ma'rifatparvar millatdoshlarimiz ham ko'p bo'lgan. Faqat mafkuraga bo'ysundirilgan cho'pchaklarga ko'pam ishonaverish kerak emas.

Ro'zimboy HASAN,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

JAHON AYVONIDA

XAVFSIZ SHAHAR

So'nggi bir yil ichida Finlyandiya poytaxti Xelsinki shahrida yo'l-transport hodisalarida hech kim qurbon bo'lmadi, deya xabar berdi "Yle".

Shaharda o'limga olib kelgan so'nggi YTH 2024-yil iyul oyi boshida sodir bo'lgan. "Bu natijaga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatdi, lekin tezlik cheklovleri eng muhimlaridan biri bo'ldi", deydi shahar atrof-muhit departamentining



transport harakati bo'yicha muhandisi Roni Utraienen.

Hozirda Xelsinki ko'chalarining yarmidan ko'pida tezlik chegarasi 30 km/soat etib belgilangan. Elik yil oldin bu ko'rsatkich 50 km/soat bo'lgan.

ODAMLAR EVAKUATSIYA QILINADI

Rossianing Uzoq Sharq sohillari yaqinida Rixter shkalasi bo'yicha 8 balli zilzila sodir bo'ldi.



Rossiya Fanlar akademiyasi Geofizika xizmatining Kamchatka bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, bu 1952-yildan beri eng kuchli yer silkinishi hisoblanadi.

Zilziladan so'ng bir qancha mamlakatda sunami xavfi e'lon qilindi. "Euronews" xabariga ko'ra, Yaponiyada 2 millionga yaqin odam evakuatsiya qilish uchun tavsiyanoma olgan.

YANA 15 DAVLAT FALASTINNI TAN OLMOQCHI

Dunyoning 15 ta davlati tashqi ishlar vazirlari Nyu-Yorkda o'tkazilgan konferentsiya yakunlari bo'yicha Falas-



tinni tan olish masalasini ko'rib chiqishni qo'llab-quvvatladi. Bu haqda ularning qo'shma bayonotida aytilgan bo'lib, uni Fransiya Tashqi ishlar vazirligi e'lon qildi.

Tashqi ishlar vazirlari rahbarlarining ta'kidicha, Falastinni tan olish masalasi 2025-yil sentyabr oyida BMT Bosh assambleyasi 80-sessiyasining yuqori darajali haftasida muhokama qilinadi.

BEPUL REPETITOR

OpenAI ChatGPTda bilimlarni bos-qichma-bosqich mustahkamlashga mo'ljallangan yangi funksiya – "O'quv rejimi" (Study Mode) taqdim etildi.



Ushbu yangilik foydalanuvchilarga nafaqat tayyor javoblarni olish, balki vazifalar va mavzularni tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur funksiya barcha tarif rejalarida ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar, jumladan, bepul versiya hamda Plus, Pro va Team obunalari egalari uchun ham mavjud.

ChatGPT Edu ta'lim versiyasiga esa bu rejim bir necha hafta ichida qo'shiladi.

TOLIBONNING TANQIDI

Tolibon hukumati qo'shni mamlakatlarni afg'onlarni ommaviy ravishda chiqarib yuborayotgani uchun tanqid qildi.



Eron va Pokiston o'z hududlarida noqonuniy yashayotgan chet elliklar, deb hisoblaganlarni mamlakatdan chiqarib yubormoqda. Bu haqda "ABC News" xabar berdi.

Ikkala mamlakat ham muddatlar belgilab, agar noqonuniy muhojirlar bunga rioya qilmasa, ularni hibsga olish yoki deportatsiya qilish bilan tahdid qilmoqda. Davlatlar afg'onlarni nishonga olayotganini rad etishmoqda, vaholanki, afg'onlar ikkala mamlakatda ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Tolibon hukumatining qochqinlar va vatanga qaytish masalalari bo'yicha vazir o'rinbosari Abdul Rahmon Rashid ushbu mamlakatlarni deportatsiya siyosati uchun qoraladi va buni "xalqaro me'yorlar, insonparvarlik tamoyillari va

islomiy qadriyatlarining jiddiy buzilishi" deb atadi.

POWERBANK SABAB ORTGA

QAYTGAN SAMOLYOT

Asiana Airlines aviakompaniyasi samolyotida yo'lovchi buyumini borda tushirib yuborgani sababli uchoq ortga qaytishga majbur bo'ldi. Bu haqda "Haberlar" xabar berdi.

Ma'lum qilinishicha, samolyot Istanbuldan Seulga uchayotgan bo'lgan. U Qozog'iston hududi ustidan parvoz qilayotganida yo'lovchilardan biri Powerbank qurilmasini o'rindiqalar orasiga tushirib yuborgan. Oqibatda u ekipajdan yordam so'ragan. Biroq bort kuzatuvchilarining qurilmani olishga urinishi muvaffaqiyatsiz tugagan. Shu sababli samolyot yarim yo'ldan Istanbulga qaytgan.



Janubiy Koreya fuqaro aviatsiyasi qo'mitasi aviakompaniyalarga samolyot bortida portativ zaryadlovchi qurilmalarni tashishni qat'iyon taqiqlaydi. Sababi Powerbank litiy-ion batareyalarga ega bo'lib, noto'g'ri ishlatilganda yoki zararlenganda qizib ketishi yoki portlashi mumkin.



JAVOHARLA'L NERU TANIGAN JADID

Boshlanishi 1-sahifada.

1918-yil noyabrda taniqli ziyolilar bilan Qo'qon xalq universitetini tashkil etishda qatnashadi va unga rahbar etib saylanadi. Bu dargoh Farg'onadagi pedagogika institutlari uchun asos bo'ladi.

20-yillarda, sovetlar tarixchilarga nisbatan muayyan erkinlik bergan davrda Soliyev o'z asarlari va darsliklari bilan shuhrat qozondi. "Mang'itlar davrida Buxoro", "Hindiston Angliya zulmi ostida", "Buxoro tarixi, I qism", "O'rta Osiyoda savdo kapitali davri", "O'rta Osiyo tarixi: XI–XV asrlar", "O'zbekiston tarixi", "O'zbekiston va Tojikiston", "O'rta Osiyoda islomning tarqalishi" kabi asarlari birin-ketin nashr etiladi.

Po'lat Soliyevga 1926-yilda professor unvoni beriladi.

Olim davr taqozosiga ko'ra o'ziga xos uslubda ijod qilgan. Bir mavzuda kitob yozar ekan, asar zahirida butunlay boshqa bir muammoni fosh etardi. Masalan, "Hindiston Angliya zulmi ostida" risolasida muallif rasman ingliz mustamlakachiligini tanqid qiladi, aslida esa bolsheviklar va sovet hukumati siyosatining g'ayriinsoniy jihatlarini mahorat bilan ochib beradi.

U 20-yillar boshidayoq milliy tarixni o'qitish uchun darslik yozishga kirishadi, ammo bolsheviklar bu loyihalarni rad etadi. 1929-yilda "O'zbekiston tarixi" kitobini chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Kitobning kirish qismiga Amir Temur portretini qo'ydirgani uchun "o'tmishni ideallashtirish" aybi bilan ta'qibga uchraydi. Bu paytda hali "O'zbeklar ham Temur bolalari" (1927) maqolasining zahri ketib ulgurmagan edi.

1933-yilda "O'rta Osiyo tarixi" asari "ideologik jihatdan nomaqbul" deb e'lon qilinadi. 1936-yilgi tarixchilar qurultoyida Soliyevning asarlariga "panturkchilik va millatchilik" tamg'asi bosilib, darslik sifatida foydalanish taqiqlab qo'yiladi.

1937-yilgi "katta terror" to'foni professor-ni ham chetlab o'tmadi. O'sha yilning o'zida uni Samarqand davlat universitetidan bo'shatishadi. 11-oktyabrda rasman hibsga olinib, "panturkchilik va antisovet targ'ibot"-da ayblanadi. Qariyb besh oy davom etgan qiynoqlardan so'ng, 1938-yil 28-fevralda "xalq dushmani" sifatida otib tashlanadi. Shu bilan birinchi o'zbek tarix professori qatag'on mashinasi qurboniga aylanadi.

Sovetlarning jazavaga tushgani, bir olimga och bo'riday tashlangani bejiz emas edi. Uning hayot yo'li va ilmiy merosi XX asr boshlaridagi O'zbekiston tarixshunosligida mislsiz ahamiyatga ega. U zamon ko'tarmasa-da, voqealarga biryoyq-lama emas, xolis, mustaqil va tanqidiy qarashni yoqlagan. Mustamlakachilik va uning xalq hayotiga ta'siri borasida yuzaki xulosalar bilan cheklanmagan – har bir bosqinchilik va uning asl maqsadlarini, oqibatlarini teran anglashga harakat qilgan.

Birgina "O'zbekiston tarixi" asari ilm-fanimizning yuksak yutug'i, millatning o'tmishini haqiqiy va xolis yoritishga, xalqning ezgu orzulari va alamlarini aks ettirishga qaratilgan mehnat samarasidir.

Soliyev zhammatlar evaziga yozilgan asarlari chop etilmay yotgani, chop etilganlari taqiqqa uchragani, eng alamlisi, xalqqa yetib bormayotganidan afsuslanib, do'stlariga shunday deydi:

YANGI NASHR

Jadidlik harakatining atqqli vakili Elbek (Mashriq Yunusov) ko'p qirrali ijodkor hisoblanadi. O'tli she'rlari, davr ruhini aks ettirgan hikoyalari, Pushkin, Krilov, Nekrasovlardan qilgan tarjimalari, tilshunoslikka oid maqolalari, tuzgan lug'atlari, darsliklari va to'plagan folklorshunoslik namunalari – shoir, nosir, tarjimon, tilshunos, folklorshunos, pedagog hamda taniqli publitsist sifatida Elbek juda katta adabiy va ilmiy meros qoldirganidan dalolatdir.

Hayoti davomida bir qancha mas'ul lavozimlarda ishlagan bo'lsa-da, Elbekning asosiy kasbi o'qituvchilik edi. Jadid maktabi ta'limini olgan shoir erksizlikdan qutulishning eng qulay yo'li – xalqni ma'rifatli qilish, farzandlarga to'g'ri ta'lim va tarbiya berish, deb bilgan. Shu maqsad yo'lida u bolalar uchun turkum she'rlar, masallar yozdi. Xalq qo'shiqlari, ertaklarini to'plab nashr ettirish bilan birga, boshlang'ich sinflarga mo'ljallangan "Yozuv yo'llari", "O'rnak", "Boshlang'ich maktabda ona tili", "Bilim", "Go'zal yozg'ichlar" singari darsliklar yaratdi.



Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Mashhura Darmonova hamda Baxtiyor Murodov tomonidan yaqinda Elbekning "O'rnak" kitobi hozirgi o'zbek alifbosiga o'g'irilib, qayta nashr qilindi. Maktablarning birinchi, ikkinchi va uchinchi sinflariga mo'ljallangan uch kitobdan iborat ushbu darslik eski o'zbek yozuvidagi asl matn (faksimile) bilan birga yaxlit to'plam qilingan. Dastlab,

1925-yilda chop etilgan bu kitoblar XX asr boshlaridagi yangilangan pedagogikaning ilg'or tamoyillarini aks ettiradi. Muallif darslik muqaddimasi-da shunday yozadi: "O'zbekiston maorif komissarligi qoshida tuzilgan "O'zbekiston bilim kengashi"-ning menga topshirishi bo'yicha, boshlang'ich maktablarimizning I, II, III bo'lumlari uchun ushbu

"Agar Fevral inqilobi davom etganida, biz hozir millioner bo'lardik. Bu vaqt ichida men yuzlab ilmiy asarlar, Turkistondan qiziqari narsalarni yozib chiqar edim. Aslida, kapitalistik mamlakatlarda tarixchilar va yozuvchilar qullar emas, nashriyotlarning asirlaridek emas, ular o'z asarlarini o'zlari chop etadi va katta obro'ga ega bo'ladi. Biz esa, kimningdir istagi uchun, sun'iy kitob yozish buyruqlari bilan o'zimizni qiynarmiz. Biz muhtojimiz va tilanchilik qilamiz".



shaxsiy egoizmdan mahrum bo'lsa, kollektiv hayot uzoq davom etmaydi. Odam faqat o'zi uchun harakat qilganda jiddiy yondashadi. Mana shu ta'kid har bir jamiyat taraqqiyoti uchun shaxsiy erkinlik, iqtisodiy muhit va ijodiy imkoniyatlar zarurligini anglatadi.

Po'lat Soliyev asarlarini o'rganish davomi-da talqin va tahlilga e'tibor berilsa, Angliya va SSSR modellari o'rtaqidagi tub farq ko'zga yaqqol tashlanadi. Masalan, "Hindiston

"Bizdagi ahmoqlar quruqlik armiyasini haddan tashqari ko'paytiraypti, uni ko'chalarda namoyish qilib, kulgiga qolyapti. Aslida, kelajakdagi urush quruqlikda emas, havoda bo'ladi, hal qiluvchi kuch – bu quruqlikdagi armiyamiz emas, balki ilm va texnika bo'ladi. Nemislar shunday bombardimonchi samolyotlar yaratdiki, ular har qanday vaqtda Moskva va Leningradni kulga aylantira oladi. 24 soat ichida ular hududimizning yarmini egallashga qodir... Agar Gitler tirik bo'lsa, yana bizning boshimizda maymun raqsi boshlanadi... Moskva va Leningradni bosib olsa, qolganini urushsiz egallaydi. Aslida, Rossiya paxtaga tayanadi, Turkiston paxtasiga. Paxta bo'lmasa, sanoat o'z-o'zidan to'xtaydi. Agar Boku ham ketadigan bo'lsa, Rossiya zulmatda va neftsiz qoladi. Ruslarning haqiqiy vatani – Sibir, ular faqat o'sha yerda qoladi. Hatto Sibirda ham ko'p hududni Yaponiya o'z ko'zi bilan ko'rib qo'ydi... Germaniya esa kelajakda Yevropaning xo'jayiniga aylanishga intilyapti va, shubhasiz, aylanadi... Urush boshlangan zahoti bosmachilik kuchayadi, mamlakat ichida parokandalik boshlanadi. So'ngra (GPUning odamlaridan) shubhali odamlardan bo'lgan suhbatlardan qochishadi..."

Bu bashoratlarning olimning dunyoqarashi va strategik fikrlash qobiliyati qanday yuqori bo'lganini, tarixiy saboqlar faqat o'tmish uchun emas, balki kelajak uchun muhim ekanini isbotlaydi. Jahon urushidan so'ng tarix yana bir bor bu gaplarning haqiqatini tasdiqladi – ilm, sanoat, texnika va ozodlik asosiy boylik ekanini ayon bo'ldi.

Garchi sovetlar olimni jismonan yo'q qilgan bo'lsa ham, uning dovrug'i allaqachon jahon ilmiy va siyosiy dalralariga ma'lum bo'lib ulgurgan edi.

1955-yil 15-iyun kuni Hindiston Bosh vaziri Javoharlar' Neru rasmiy tashrif bilan Toshkentga keladi. Oliy martabali mehmon sharafiga O'zbekiston Fanlar akademiyasi zalida tantanali uchrashuv uyushtiriladi. Anjuman yakuniga yetgach, Neruning tarjimoni tashkilotchilarga "Janob bosh vazir hurmatli professor Po'lat Soliyev bilan uchrashmoqchi", deya murojaat qiladi. O'sha paytdagi O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri G'ani Sultonov bu nomni eshitib, "bunday odamni tanimayman", deb javob beradi. Hamma beixtiyor Akademiya prezidenti Tesha Zohidovga qarab qoladi. Ijodkorlar, olimlar sukut saqlab, alam bilan yerga qarab turaveradi. Taranglashib borayotgan vaziyatga Zohidovning qisqa izohi chek qo'ydi: "Janob bosh vazir, professor Po'lat Soliyev ancha yillar oldin yo'lida vafot etgan. Qabri qayerda ekanini ham bilmaymiz..."

Bugun xalqimiz ana shunday fidoyi insonlarni, ularning haqiqiy merosini qadrlab, tarixni xolis o'rganib, haq so'zda sobit turishi, yurt taraqqiyotiga hissa qo'shishi zarur.

Po'lat Soliyev sabog'i Yangi O'zbekistonni quradigan, Uchinchi Renessans po'ydevorini yaratadigan avlod uchun hayotiy o'rnak va ibratdir.

B.QODIROV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti bo'lim boshlig'i
A.ATAYEV,
katta ilmiy xodim

“O‘RNAK” BIZGA O‘RNAK BO‘LSIN!

qo'lingizdagi "O'rnak" o'tli asarni tuzdim. Buni tuzishda O'zbekiston bilim kengashining "Ta'lim va tarbiya" komissiyasining ko'rsatdigan yo'li bilan harakat etishga tirishgan. Ushbu darsliklarning har biri o'quvchilarning yoshi hisobga olingan holda turli darajadagi hikoyalarda, she'rlar va kichik matnlar bilan boyitilgan.

Birinchi sinf o'quvchilariga mo'ljallangan "Maktab", "Uy", "Uy ichi" (oila), "Jonivorlar", "Qushlar", "Kishi", "Sog'liqni saqlash yo'llari", "Qurt-qumursqalar", "Fasllar", "O'simliklar", "Ma'danlar", "Kash-shofflar" kabi o'n ikki bobdan iborat darslikning dastlabki qismida bolalarga hayotiy va ilmiy tushunchalar berilgan. Ikkinchi sinf o'quvchilariga mo'ljallangan qismda turli masal va ertaklar, bolalarning qiziqishi va istaklarini aks ettiruvchi she'rlar jamlangan. Uchinchi sinflarga mo'ljallangan "O'rnak" o'qish kitobi esa har biri o'ziga xos didaktik vazifani bajaradigan 7 bobdan tashkil topgan. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning bilim, ko'nikma va

malakasini bosqichma-bosqich oshirib borishga qaratilgan.

Uch qismli mazkur darslikda xalq og'zaki ijodi namunalari, shoirning o'zi tomonidan yozilgan she'r va hikoyalarda, zamondosh shoir va yozuvchilar bilan bir qatorda, rus va qardosh xalqlar adiblarining asarlaridan ham foydalanilgan. Jumladan, Botu, Cho'pon, Ilg'or, Chig'atoy, A.Avloniy, Hasanbek, G'ulom Zafariy, M.Toshmat, Yulurik, M.Toshmon, Yulduz, Rahim Rahmoniy taxalluslari ostidagi she'r va hikoyalarda berilgan. Ular o'sha davr adabiyotini tadqiq etishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Bu darsliklar bugungi davr o'quvchilari uchun ham ahamiyatlidir. Ulardan zamonaviy ta'lim tizimidagi darsliklarni yaratishda, shuningdek, jadid maktablarining asoslarini o'rganishda foydalanish mumkin.

Bekzod IBRAGIMOV,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti
universiteti
mustaqil izlanuvchisi

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi.
Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Omonullo Nusratullayev — 1906-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1922–1929-yillarda Germaniyada o'qigan. "Ozod Turkiston" tashkiloti a'zosi.

O'rtga qaytgach, safdoshlari bilan aksil-inqilobiy targ'ibot olib borishda ayblanib, 1937-yil 4-sentyabr kuni Toshkent shahrida qamoqqa olingan. 1938-yil 9-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining Toshkentda bo'lib o'tgan ko'chma sessiyasida otuvga hukm etilgan.

1959-yili 20-aprelda sud qarori bilan reabilitatsiya qilinadi.

Hoshim Sattorov — 1904-yil Naman-gan shahrida kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1930-yili Moskvadagi tibbiyot institutini tugatib, ichki kasalliklar bo'yicha shifokor bo'lib ishlagan. Jadidlarning "Ko'mak" jamiyati faoliyatida ishtirok etgan. Avval komсомol safida edi, keyin partiya a'zoliciga qabul qilinadi.

Moskvadagi SSSR Tropik instituti aspi-ranturasida o'qiydi. 1931-yilda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti qarori bilan O'zbekiston SSSR Sog'liqni saqlash xalq komissarligida kadrlar mudiri lavozimiga qo'yiladi. 1932–1934-yillarda O'zSSSR Sog'liqni saqlash xalq komissari o'rinbosari, 1932-yil iyunidan Toshkent tibbiyot instituti direktori bo'lib xizmat qilgan. Sovetlarning 5-qurultoyida O'zSSSR Markaziy ijroiya komi-teti a'zosi etib saylangan.

SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi say-yor sessiyasining 1938-yil 4-oktyabrda-gi yig'ilishida otuvga hukm etilgan.

Xayriniso Majidxonova — 1905-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. Qamoqqa olinganga qadar Toshkentdagi 14-son ambulatoriyada shifokor bo'lib ishlagan. 1922-yildan 1928-yilgacha Germaniyada o'qigan. "Ozod Turkiston" tashkilotining a'zosi bo'lgan.

Aksilinqilobiy aloqalarda ayblanib, 1937-yil 25-sentyabrda Toshkent shahrida hibsga olingan.

X.Majidxonova 1938-yil 9-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida O'zSSSR Jinoyat kodeksining 62-, 64- va 67-moddalari bo'yicha ayblanib, SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining qarori asosida otuvga hukm etilgan.

To'lagan Mo'minov — 1902-yili Tosh-kent shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1922–1931-yillarda Germaniyada o'qigan. "Ozod Turkiston" tashkiloti a'zosi. Vatanga qaytgach, "O'zbekenergiya"da katta muhan-dis bo'lib xizmat qilgan.

1937-yil 7-avgustda hibsga olinib, 2-sentyabrda O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 60-, 67-moddalari bilan javob-gariikka tortilgan.

SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi say-yor sessiyasining 1938-yil 9-oktyabrda-gi yig'ilishida otuvga hukm qilingan.

1956-yil To'lagan Mo'minov reabilitatsiya qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor
Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).



ZARDA

Kun hindining tandiriday qiziganda ayiqpolvonning terskay qazilgan o'rasiday muzdekkina uyda "Barra bodring" degan yopishtirmasi xira tortib ketgan bonkadagi sovuq choyni xo'plab, "insta" oralab taltayib yotgandim.

Qarasam, birovi maylisda boshqasiga aql beryapti: "Mana, misol uchun sigirni olaylik. U tarvuz po'chog'ni yeb, sut beradi, qatig' beradi, pishloq beradi, yana go'sht ham beradi. Biz-chi? Siz bilan biz tarvuzni o'zini yeb, jamiyatga nima beryapmiz?!" O'tirganlar beshqarsak chalvorishdi. Hammasiga kulib qo'ydim. Lekin shu payt ko'zim qanday ilinganini bilmay qopman. Qush uyqining tushiga o'sha ibratli lavhadagi va'xon kirdi. Menga qarab: "Oddiy govmish oddiy tarvuz po'chog'ini yeb, shuncha narsa beryapti! A, siz nima beryapsiz?!" deb o'shshaysa bo'ladi? Uxlayotgan bo'lsam ham kalam zo'r ishlab ketdi: "Menmi?... Men... haligi sigirga tarvuz po'choq beryapman!" Bunday javobni kutmagan va'xon, qoshlarini uyib, ko'zlarini olagazak qilib hilqindi: "G'alatimasmiz?..."

Bu qizg'in bahs-munozara hali ko'p davom etardi-yu, xotin uyg'otib yubordi. Aytishicha, oshnam O'tkirjon og'ir yotganmish. O'ziyam juda hojatbaror yigit. Jondek jigarim. Qachon qarama, odamlarni hojatini chiqarib yuradi. Mana, endi o'zi hojatdan chiqolmay qopti, bechora... Hozir kasalxonada emish. Shifoxona bo'lsayam go'rgaydi, bechora naqd xastaxonada mushdekkina jonini hovuchlab, dardi behayo bilan kurashyapti, deydi xotin qoshlarini baland-past qilib.

A, labbay? Dardi nima ekan, to'chniy ayt deysizmi? Bundoq...

"Infekcion kasalliklar bo'limi"dan mahzun chiqqan do'xtir yuzidagi nigobini tushirib, ko'zidagi oynagini hafsala bilan artgancha derazadan olis-olislariga tirishib tikilibdi va pashshalar dastxat qo'ygan oynani kafti bilan "tirt-tirt" etkizib artib, bemorning javobga mahtal yaqinlariga debdi: "O'tkir diareya..."

Iya, cho'rtkesar, joydari yigitga qayog'dagi chet elcha kasallik ilashibdimi deb tursam, xotin aytib qoldi, bu "diareya"si o'zimizni ichburug' ekan. Bilmagandan keyin qiyin-da! Bo'lmasa, har yoz yarimta chillakini paqqos tushirib, jonon chashma labiga lab bosib,

BU DARDLARGA DAVO BORMU?



suv ichgan kunlarim ko'p bo'lgan, hech nima qilmagan. Xullas, dezinfeksiya degan ismi rasmi uchun bitta "yarimta"ni qo'tlig'imga termometr qilib, "O'tkir diareya"ni ko'rgani bordim.

Kasalxonaga kiraverishda ko'chmas bozor tashkil qivorishibdi baraka topgurlar. Shularga qarab, mo'ylovni burab, miriqib tursam, bir qizgina: "Kep qoling, muzdek ayron! Ichganlar darmonda, ichmaganlar armonda!" deb qoldi. Ko'ngil ketdi, dil ketdi, o'n besh ming so'm pul ketdi. Sekin borib, tanish qo'shniqni hirgoyi qildim: "Ayronchi qiz, quygil endi ayroningdan! O'rgiloyin chakkangdagi rayhoningdan!"

Birinci istakon moyday o'tdi. Ortidan yana bitta urvordim. Keyingisini ta'mi jindek boshqacha tuyildi. Hazilga olib: "Singlim, bu o'zi ayronmi, qimzimzi?" dedim. Hayron bo'lib: "Ayron..." deydi tushmagur! Ishonqiramay, tog'orasiga ko'z tashlasam... ne ko'z bilan ko'rayki, bir yashilib pashsha idish labida bamaylixotir birvarakayiga ikkita ishni bajaryapti. Bir-ikkitasi ichiga tushib, chalqancha suzish, sinxron suzish,

artistik suzish, kapalak suzish, it suzish qilib o'zlarining yozgi spartakiadasiga tayyorlanishyapti.

Bu yog'i qanchaga tushdi endi? Nima qilarimni bilmay qoldim. Anov qizga bir nima deb o'dag'ayladim. U bo'lsa: "O'zizni bosing, mulla aka, ko'ynizga omasayiz, hichtima qimiydi! Eskilar "bilmaganga toza" deyishgan, mulla aka!" deb o'zini oqlashga tushdi. Bu jonivorlar o'zimizniki, pok-pokiza, deyishiga o'laymi?! Ta'bim tirriq bo'lib, qo'l siltab jo'navordim. Shuyam birovni bolasi, tirikchiligini qilsin, dedim ichimda. Lekin bu yog'iga hamma narsa baloday ko'rinadigan bo'qqoldi ko'zimga!

Mana, misol uchun, anavi piramida kabi uyib qo'yilgan qurultlarni olaylik. Nazarimda, ularni qatig'ini kovush kiyan ikki azamat paxsa loyini pishitgan kabi tepib-tepib tayyorlagandek, yumaloq bo'lmaganlarini biror qo'li yuvqsiz g'ijimlab-g'ijimlab tashlagandek, toza chakkiga unmi, ohakmi, albastirmi qo'shgandek tuyilaverdi, tuyilaverdi... Sotuvchi xola "Qurut beraymi? Yog'liq-qina, qo'lbola quruti!" deganida Mumby

oshxonalarini ko'z oldimga kep ketdi! Qo'lbola emish! Oyoqbola emasmi?! O'rgildim!

Ikkiga bo'lingan tarvuz ustida suvarak ko'rganimni aytdimmi? O'zlarini "Titanik" burnidagi Jek va Rouz hisoblab, to'la-to'kis romantika qilyotishibdi. Yana biri mayiz to'ra sohilida qo'lini yostiq qilgancha kungayda toblanyapti – o'zbekcha aytganda, "zagar" o'lyapti. Yonida yotgan oyimchasi kakteyl quyilgan toshyong'oq pallasiga ajriq naycha tiqib, xo'rillatyapti. Mayna cho'qib ketgan husayniga ikkita ari qo'ngandi, biroz o'tib ikkoviyam shox tashlab uchib qoldi deng. Bu oftobda, tag'in bunday sharoitda uzum sho'rlik yo mayiz bo'ladi, yo sirka, yo vino...

Shu payt mo'rs bo'chkani egasi qayog'dagi o'rik sharbati ni maqtay ketdi. Ilgarilari bunday narsalarga qurbaqa tashlab qo'yiladi deyishgandi. Nega solisharkin deb rosa o'ylaganman. Afsonalarga ko'ra, baqa jonivor sharbati muzdek saqlarmish. Har cho'pchakda bir haqiqat. O'tgan yili bilib qoldim. Ros-tan solisharkan. Faqat boshqacharoq usulda...

Uzoq safarga chiqqandim. Yo'ldagi go'jadan ichgim keldi. Tushib so'rasam, salkam ikki yuz kilolik ayol saqichini qarsillatgancha stoldagi yuvqsiz kosani shartta ko'tarib, ariqda chayib-chayib oldi-yu, ajabtovur epchillik bilan ichiga go'ja to'ldirib, menga uzatdi. O'sha yerda tarashaday qotdim. Na ichishimni bilaman, na ketishimni. Ana shunda bu sirli masalaga yechim topdim: kosa chayish bahonasida shu kabi bo'chkalarga qurbaqa "bexosdan" tushib ketadi...

Oltinchi palataga kirsam, O'tkirjon limu yegan badaviyday aftini g'ijim qilib, qornini jon-jahdi bilan silab yotibdi. Tob tashlagan nog'oraday qorniga katak-katak yod tortilgan. O'zimni sal beri tortib so'radim: "O'zi bu balo senga qaydan ilashdi, jigar?" Bechora arang ming'irladi: "Erkinni bilasan, qaynukam. Ikki kun avval o'shani ko'rgani shu yerga kelgandim. Bechora, ichburug' bo'lib yotgandi. Kiraverishda, ayron ichganim esimda. Shart ichakni buradi-ku savil!.. Shundan beri, ko'rib turibsan, bu ahvol. Menga qara, mabodo, ko'zing tushsa, ko'cha-ko'yda, oftobni tig'ida toblanib yotgan har baloni ichib-pichib yurmagin, xo'pmi?"

Angrayib qoldim. To'satdan ichimda nimadir isyon qila boshladi...

Tashqaridan esa ayronchi qizning munis ovozi keldi: "Kep qoling, muzdek ayro-on!..." Davomi boshqacha eshitildi: "Bundan ichganlar armonda, ichmaganlar darmonda!"

Bu qaysi kasalxona ekan deb ijiklaydigan, darrov internetda negatv yopishtiradigan to'shak faylasuflariga javobimiz shuldir: mundog' muborak ortingizni ko'tarib ko'chaga chiqing, yo'lbayidagi o'rik sharbat yo ayron go'jadan ikki piyola sipqoring. Siz so'ragan manzilga o'zlari oborib qo'yishadi. Salomat bo'lgaysiz.

Shifoyi komil tilab:
Boboqand TABIBIY.

O'z qo'lim bilan chorshanbayi murod-baxsh kuni qornimga qo'ranta jo'xori bog'lab, bemajol-u behol bitdim.

TILBILIM

“TAVON” va “TOVON”: etimologik “qarindosh”mi yoki shakldosh?

**Munda men, anda notavon ko'nglum,
Munda men zor-u anda qon ko'nglum.**

Ushbu bayt Alisher Navoiy "Xamsa"sining "Sab'ai sayyor" dostonidan keltirildi. Navoiy asarlari tilining izohli lug'atiga ko'ra, notavon – zaif, quvvatsiz, qudratsiz, ojiz ma'nolariga ega. Notavonlik, notavono shaklida ham keladi. Navoiy "Saddi Iskandariy"da shunday yozadi:

**Bu ishga keraktur tavono kishi
Emas men kibi notavono kishi.**

Tavono notavonning ziddi bo'lib, qodirlik, qudrat ma'nosida qo'llaniladi. Tavon so'zi forsiy tavonestan – qila olmoq, qodir bo'lmoq fe'lga no-old inkor qo'shimchasi qo'shish orqali yasalgan, nimjon, kuchsiz, qashshoq ma'nolarini ifodalaydi. Tavon – forsiy o'zlashma so'z.

Ahamiyat bersak, insonning tana a'zolaridan biri tovon deb ataladi. Agar odamda tovon bo'lmasa oyoqda tik turolmaydi, muvozanatni yo'qotadi. Ma'no jihatidan tavon tovonga biroz to'g'ri keladi. Ya'ni, tovon insonning muhim a'zosi, tovon siz nimagadir qodirlik xususiyati susayadi (Inson tovonining nozik a'zo ekanligini ifodalashda "Axilles tovon" iborasidan foydalanishadi. Bu ibora "ojizlik hududi, zaif nuqta" ma'nolarini bildiradi).

Tovon ham forsiy o'zlashma bo'lsa kerak, deb turgan edim hamki, bir ma'lumot "manaman" deb o'zini ko'z-ko'z qilib qoldi. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" kitobida taban – tuyva tovon,

tabanladi – tovonni bilan urdi deya izohlangan. O'zbek tilining etimologik lug'atidagi ma'lumotga ko'ra, tovon – oyoq kiftining orqa qismi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli "bos-", "ez-" ma'nosini anglatgan ta:pa – fe'lidan -n qo'shimchasi bilan yasalgan. Keyinroq a: unlisning cho'ziqlik belgisi yo'qolib, ikki unli oralig'idagi p tovush b undoshiga, o'zbek tilida b undoshi v undoshiga, a unillari o ga almashgan: ta:pa +n=ta:pan>tapan>taban>tavan>tovon.

Fors lug'atshunos olimi Dextudo lug'atida tovon turkiy o'zlashma sifatida kelgan. Fors tilining izohli lug'ati, shuningdek, Muin, Umid fors lug'atlari ham buni tasdiqlaydi.

Tovon (ba'zi o'rinlarda tavan) so'zining boshqa – jarima, haq to'lash ma'nolari ham bor. Aynan shu ma'noda qo'llaniladigan tovon fors tilidan o'zlashgan. Lekin tilimizda tovon to'lash fe'li ko'p o'rinda tavon to'lash shaklida ham keladi.

Yuqoridagi har ikki so'z o'ziga xos semantik yuk va tarixiy ildizga ega. Ular o'zaro fonetik jihatdan o'xshash bo'lsa-da, turli tillardan kirib kelgan. Til taraqqiyoti zanjirida "tovon" so'zi turkiy ildizga ega bo'lib, fors tilida shakllangan "tavon" bilan fonetik va semantik yaqinlik tufayli chalkash yoki parallel ma'nolarda rivojlangan bo'lishi mumkin. Bu kabi so'zlar etimologik konvergensiya, ya'ni turli manbadan kelib chiqqan, lekin shaklan yaqinlashgan so'zlar hodisasi bilan izohlanadi.

Iroda RAHMONTALIYEVA



TANLOV

"Jadid" gazetasi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda "Dolzab 90 kun" loyihasi doirasida maktab o'quvchilari orasida Vatanga mehr-muhabbat va sadoqat, milliy qadriyat va an'alarimizga hurmat tuyg'ulari tarannum etilgan, shuningdek, ma'rifatparvar jadidlarning ibratli faoliyatini mustaqil tahlil va talqin qilishga bag'ishlangan



“JADID BOBOMGA MAKTUB”

ijodiy insho tanlovi e'lon qilingan edi. E'tiborli jihati, ushbu tanlov yurtimizdagi juda ko'plab maktab o'quvchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Joriy yilning 31 iyulga qadar tahririyatimizga 24 mingga yaqin insholar kelib tushgani ham shundan dalolatdir. Ayni paytda taniqli ijodkor va o'qituvchilardan iborat nufuzli hakamlar hay'ati tomonidan diqqat bilan o'rganilmoqda. Mustaqillik bayrami arafasida tanlov g'oliblari aniqlanib, belgilangan tartibda taqdirlanadi.

Quyida tahririyatimizga yo'llangan insholarning hududlar kesimida taqsimoti bilan tanihash:

Viloyat nomi	Insho topshirganlar soni	Navoiy	2626
Toshkent	1418	Qashqadaryo	741
Toshkent viloyati	618	Samarqand	2092
Andijon	1027	Sirdaryo	304
Buxoro	959	Surxondaryo	648
Farg'ona	9443	Xorazm	532
Jizzax	389	Qoraqalpog'iston Respublikasi	385
Namangan	2677	Umumiy soni:	23859

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda "Jadid" gazetasi tahririyati jamoalari Uyushma a'zosi, taniqli shoir Botirjon Ergashevga vafotidan so'ngi muhtaramasi

Soraxon aya MADG'OZIYEVAning

vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

Jadid
adabiy, badiiy va ijtimoiy xabarlarni beruvchi gazeta

Muassislar:



**O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI**



**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI**



**MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI**



**“SHAHIDLILAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI**

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchesi muharrir:
Akmal Jumamurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 083

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 430

Lotin yozuvida – 11 653

Media kuzatuvchilar – 92 841

Buyurtma: G – 840.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz